

**MAVZU: IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA
MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA
SHAKLLANTIRISH**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	7
I.1. Hadis ilmining paydo bo'lishi	7
I.2. Imom-Al-Buxoriy hadis ilmining sultoni	10
I.3. "Al-Jomi as-Sahih" – Imom Ismoil al-Buxoriyning shoh asari.....	14
I bob bo'yicha xulosa.....	24
II.BOB. IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISHNING AMALIY SHART- SHAROITLARI.....	26
II.1. Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni.....	26
II.2. Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish.....	37
II.3. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al- Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish.....	53
II bob bo'yicha xulosa.....	59
XULOSA.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	63
ILOVALAR.....	68

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Bugungi kunda, ko'hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimizga e'tibor kuchayib, ulug' ajdodlarimiz – o'lmas asarlar yaratib ketgan buyuk allomalarning hayoti va ijodini puxta o'rganish hamda ulardan keng xalq ommasini bahramand qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Ana shunday zotlardan biri Abu Abdulla Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mug'iyra al-Buxoriy al-Ju'fiy (Imom Ismoil al-Buxoriy) islom olamida payg'ambar hadislarini to'plagan eng mashhur shaxs bo'lib, uning yozgan asarlari, Qur'onga bitgan sharhlari ta'lim va tarbiya jarayonida mislsiz ahamiyatga egadir.

Muhaddislar sultoni Imom al-Buxoriy islom dunyosida betakror shaxs hisoblanadi. Uning bizgacha bir necha hadislari yetib kelgan. Bugungi kunda Imom al-Buxoriy merosini o'rganish va targ'ib qilishda jamiyatimizda keng etibor qaratilgan.

Yurtimizda xalqni imom Buxoriy asarlari bilan tanishtirish, u zotning hurmatini joyiga qo'yish davlat miqyosida olib borilmoqda. Buyuk bobomiz dafn etilgan joy butun dunyo tashrif buyursa ham havas qiladigan qadamjoga aylantirilgan. Jumladan, Imom al-Buxoriy shaxsi va ilmiy merosi borasida joriy yili 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham keng to'xtalib o'tildi. Prezident, "mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish doimiy masalalardan biri bo'lib qolishi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan hamda diniy bag'rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etish.

Imom Buxoriy bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini bu mo''tabar zotning musulmon dunyosidagi ulug' maqomiga mos ravishda mutlaqo yangi loyiha asosida qayta barpo etish'' haqida istiqboldagi amalga oshiriladigan rejalar bilan tanishtirib o'tdilar¹.

Darhaqiqat, Vatandoshimiz Imom Buxoriy nomi butun islom olamida izzat-ehtirom bilan tilga olinadi. 1974 yili Samarqandda Imom Buxoriy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan jahon anjumani o'tkazilganligi, shoh asarlari sanalmish "al-Jome' as-Sahih" va "al-Aab al-mufrad" kitoblarining mamlakatimizda qaytadan nashr qilinishi fikrimizga dalil bo'la oladi.

Ummaviya xalifalaridan bo'lmish Umar ibn Abdulaziz hadislarni kelgusi avlodga etkazish yo'lida ilk qadamni qo'ydi. Uning maxsus farmoniga binoan hadislarni jamlash va yozishga qaror qilindi. Bu qutlug' ishga Abdulmalik ibn Abdulaziz Jurayx, imom Malik ibn Anas, ar-Robi' ibn Subayx kabi allomalar kirishdilar. Ko'p o'tmay bu maydonga imom Buxoriy kirib keldi va hadis ilmining "oltin asri" boshlandi. Payg'ambar va sahobalar nomidan soxta hadis to'qib tarqatishga shu yo'sinda to'siq qo'yildi. Bu muhaddislar peshvosi esa Imom Buxoriydir.

Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, muhofazalari o'tkir olim bo'lgan. Qaysi bir kitobini qo'lga olib, bir marotaba mutolaa qilsa, hammasi yodlangan. U kishi butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo'lsa moddiy jihatdan, odamlarga biror naf yetkazishni asosiy maqsad deb bilgan.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishini "Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirish" deb nomladik, allomaning hayoti va faoliyati, ma'naviy va ilmiy merosini yaqindan o'rgandik.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada

¹ <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarori, 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi, shuningdek, faoliyatga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishning maqsadi: Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash va takomillashtirish.

Ilmiy izlanishning vazifalari:

- Hadis ilmining paydo bo'lishini ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish;
- Imom-Al-Buxoriy hadis ilmining sultoni ekanligi haqida ma'lumot jamlash;
- "Al-Jomi as-Sahih" – Imom al-Buxoriyning shoh asarini pedagogik tahlil qilish;
- Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni yoritish;
- Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish;
- Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish;

Mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili: Respublikamizda ma'naviy-axloqiy tarbiya, madaniyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda buyuk muhaddislar va Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Jumladan, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda hadislarining o'rnini N.M.Musayeva, M.E.Pazilova, ayniqsa Imom Buxoriy ilmiy ijodini, uning "Al-Jomi as-Sahih" asarini keng o'rgangan olimlarimiz U.Uvatov, B.I. Eshonjonov hamda A.Samadov, A.Suyunov, N.Jabborov, A.O'ktamov D.Muhitdinovalarning Imom Buxoriy ilmiy

merosini organish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni, buyuk muhaddis ilmiy merosining shaxs kamolotiga ta'siri o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Hadis ilmining paydo bo'lishi ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganildi;
- Imom al-Buxoriy hadis ilmining sultoni ekanligi haqida ma'lumot tayyorlandi;
- "Al-Jomi as-Sahih" – Imom Ismoil al-Buxoriyning shoh asari pedagogik tahlil qilindi;
- Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni yoritildi;
- Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish;
- Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish;

Tadqiqot ob'ekti: Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirishning zamonaviy shakl, usul va vositalari.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan muhim nazariy g'oya, taklif etilgan fikr, mexanizm va tarkibiy tuzilma, ishlanmalar, ta'lim jarayonida Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya talqini va uni o'quvchilarda shakllantirishning yo'llaridan samarali foydalanishning shakl, metod vositalarini takomillashtirish, «Pedagogika» fani mazmunini yangi tushunchalar bilan boyitishda foydalanish bilan izohlanadi.

I.BOB. IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Hadis ilmining paydo bo'lishi

Islom dini ta'limoti asoslarini yorituvchi Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hadis hisoblanadi. Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. VIII-XI asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug'ullangan. Mazkur bilimlarni o'rganishning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, "Hadis ilmi" nomi bilan yuritilgan. Keyingi yillarda Muhammad Alayhissalomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"), "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari"), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning "Ash-Shamoil an-nabaviya" asarlari nashr etildi.

"Hadis" (arab. «xabar», «yangilik») yoki "Sunna" so'zlari bir ma'noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Hadis ikki qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod.

Matn – hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya'ni ma'nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari.

Isnod (arab. – tirgak, dalil, asos) – har bir hadisning tarkibiy qismi. Isnod aytilgan so'zni aytuvchisiga bog'lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan isnodni bir ma'noda qo'llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo'lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab hadislarni to'plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko'rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hasoblanadi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanini ulamolar shu ilmlarni taqqoslash yo'li bilan tekshirgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatleri shartga to'g'ri kelsa, isnod to'g'ri, demak hadis ham to'g'ri deb hisoblangan.

Hadis ikki turga bo'linadi:

1. Hadisi Qudsiy.
2. Hadisi Nabaviy.

Hadisi Qudsiy – ma’nosi olloh taoloniki bo’lib, aytilishi Rusululloh (sav)dan bo’lgan hadislar. Uni Olloh taolo o’z nabiysiga ilhom berish, tushida ko’rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg’ambar (as) esa, buning ma’nosini Olloh nomidan, Olloh taolo aytdi, deb sahobalariga etkazganlar.

Hadislar e’tiborga olinishi jihatidan esa yana uch qismga bo’linadi:

1. Sahih.
2. Hasan.
3. Zaif.

Qur’oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etiladi. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun Muhammad (sav) o’z hadislarini aytganlar. Bu hadislarini payg’ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Rasululloh (sav) hayotlik chog’larida sahobalarning Qur’oni karimga hadislarini aralashtirib yuborishlaridan qo’rqib, hadislarini yozishdan qaytarar edilar. Rasululloh (sav) vafotlaridan keyin hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan Payg’ambarimiz (sav) hadislariga begona so’zlar aralashib qolishidan va hadis naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadis zoe bo’lishidan qo’rqib, uni yozma shaklda to’play boshladilar.

Muhammad alayhissalomning ibratli ishlari, e’tiqod, poklik va insonga xos ma’naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so’zlari, pand-nasihatlarining nomi bilan bog’liq hadislarida mujassamlangan.

Hadislar dastlab yozib borilmagan. Payg’ambar Muhammad Alayhissalom arab bo’lmagan kishilarning hadislarini Qur’oni Karim oyatlari bilan adashtirib yuborishlaridan cho’chib, hadislarining yozib borilishiga ruxsat etmaganlar. Biroq payg’ambar Muhammad Alayhissalom huzurida sahobalar bo’lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Jumladan, hazrati Abu Hurayra ana shunday mo’xtabar kishilardan biri bo’lib, hadislarini mukammal yodlab borgan. Abu Hurayra tomonidan qayd etilgan hadislar to’g’ri, ishonarli (sahih) hadislar hisoblangan.

Lekin hadislarni yod olgan kishilar sonining tobora kamayib borishi natijasida ularning asta-sekin unutilib ketishi borasidagi xavf yuzaga keladi. Ana shu xavfning oldini olish maqsadida xalifalar ishonarli hadislarni to'plashga farmon berganlar. Hadislarni to'plash xususidagi farmon dastlabki xalifa Umar ibn Abdulaziz tomonidan berilgan.

Hadislarni yozib borish bilan mashg'ul bo'lgan ilk muhaddislar sifatida Rabee bin Sabeh, Said ibn Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzo'iy Shoshiy, So'fyon Savriy Kufiy va boshqalardir.

VIII-IX asrlar hadis ilmining rivojlanishida "oltin davr" hisoblanadi. Bu davrga kelib, Islom ulamolari tomonidan hadislarning qay darajada to'g'riligi, ularning qanday manbalarga tayanilib to'planganligi jiddiy tadqiq etila boshlandi. Chunki ba'zi soxta, ishonchsiz hadislar ham paydo bo'la boshlagan, ularni tekshirib, asl hadislarni tiklash va yozma ravishda qayd qilish zamon talabi bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ham birinchidan, hadislarni yoddan biluvchi haqiqiy, bilimdon, o'tkir mulohazali kishilarning asta-sekin kamayib ketayotganligi, ikkinchidan, hadislarning haqiqiy, ishonarli, ya'ni sahihlarini saqlab qolish maqsadida ular tekshirilib, asl holiga keltirib, yozib yig'ila boshlangan. Ana shu tarzda hadis ilmi rivojlana boshlagan.

Islom olamida oltita ishonchli to'plam (as-sahih as-sitta) eng nufuzli manbalar sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarning mualliflari IX asrda yashab ijod qilgan quyidagi muhaddislar bo'lganlar: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810), - 256 (870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj 206 (819), - 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824), - 279(892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniyy 202 (817), - 275(880), Imom Ahmad an-Naso'iy (215 (830), - 303 (915) va Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Mojja 209 (824), - 273(886).

Muhaddislar tomonidan yaratilgan va ishonarli manbalar deya e'tirof etilgan "Al-kutub as-sitta" ("Olti kitob") quyidagilardan iborat: 1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan "Al-jome' as-sahih" asari.

2. Imom Muslim an-Nishopuriy (Imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan

yozilgan “As-sahih” asari.

3. Imom ibn Moja tomonidan yozilgan “Sunnan”.

4. Imom Abu Dovud Sulaymon–Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnan” asari.

5. Imom Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-kabir” asari.

6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnan”.

Movarounnahrda birinchi bo’lib hadis to’plagan muhaddis Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy sanaladi. Allomaning safdoshlari sifatida Imom Ahmad ibn Xanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn qulayb ash-Shoshiy, Hofiz al-Xorazmiy, Imom Abdulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy kabi vatandoshlarimizning nomlari ham mashhur.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo’lib, ushbu fazilatlar sirasiga o’zgalarga mehr-oqibat ko’rsatish, saxiylik, ochiq ko’ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo’lish, ularga g’amxo’rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug’lash, halollik, poklik, do’stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo’ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o’zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o’z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karimda qayd etilgan ko’rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.

I.2. Imom-Al-Buxoriy hadis ilmining sultoni

“Sahih” yo’nalishining asoschisi eng yetuk va mashur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Ismoil al-Buxoriy hadis ilmida “Amir-ul-mo’minin”, “Imom al-muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) degan sharaflı nomga sazovor bo’lgan. U 810 yilning 13 mayida (ba’zi manbalarda 810 yilning 20 iyulida) (Hijriy 194 yil shavvol oyining 13 kuni) Buxoroda tug’ilgan. Go’dakligida otadan yetim qolgan. Dastlabki savodini

maktabda chiqargan, 10 yoshidayoq arab tilida yaratilgan kitoblar yordamida hamda roviylardan og'zaki ravishda eshitish asosida hadislarini yodlay boshlagan. Alloma hadis ilmini zo'r ishtiyoq va katta qiziqish bilan o'rgandi. Abdulloh ibn al-Muborak, Vaqi' ibn Jarroh kabi olimlar tomonidan to'plagan hadislarini yod olgan, shuningdek, hadis rivoyatchilari xususida so'z yuritilgan bahslarda ishtirok etgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy 825 yilda, o'n olti yoshida onasi va akasi bilan Hijozga safar qiladi. Makkayu Mukarrama va Madinai Munavvarada bo'lib, haj ibodatini ado etadi. Balx, Basra, Kufa, Bog'dod, Xume, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi shaharlarda bo'lib, safar jarayonida muhaddislar bilan uchrashadi. Muhaddislar bilan uyushtirilgan suhbatlarda ular tomonidan aytilgan hadislarini yodlab borar edi. Olti yil Hijoz shahrida yashab, u yerda yetuk muhaddislardan hadis ilmi bo'yicha, Damashq, qohira, Basra va Bag'dod shaharlarining mashhur olimlardan esa fikh ilmi bo'yicha ta'lim oladi. Shuningdek, allomaning o'zi ham turli bahs va munozaralarda ishtirok etib, toliblarga dars ham beradi.

Imom Ismoil al-Buxoriy iste'dodli, o'tkir zehnli hamda ziyrak olim bo'lgan. "Manbalarga ko'ra, Bag'dod shahrida istiqomat qilgan vaqtda ko'pincha qorong'u kechalari sham yorug'i va oyning nurida ijod qilib, kitob yozar ekan. Tunda yodiga bexosdan biror-bir fikr-mulohaza tushib qolsa, shamni yoqib, darhol o'sha fikrni qog'ozga tushirar, shu tahlitda ba'zan shamni yigirma martagacha o'chirib-yoqar ekan"¹.

Imom Buxoriyning o'tkir zehn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin.

Rivoyatlarga ko'ra, u qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba mutoala qilsa, unda bayon etilgan barcha fikrlar, ma'lumotlarni yodda saqlab qolavergan. Imom Ismoil al-Buxoriyning qayd etishicha, yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilgan. Shogirdlaridan Amir ibn Fallos "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga ma'lum bo'lmagan hadis, albatta ishonchli Hadis emasdur", - deydi. Ustoz Imom Ahmad ibn Xanbal al-

¹ Uvatov U. Xadis ilmining sultoni. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1993.29 oktyabr. №43-44

Marvaziyning aytishicha, “Butun Xurosondan Muhammad ibn Ismoil kabi olim chiqqan emas”.

Imom Ismoil al-Buxoriyning o'tkir zehni xususida yana shunday rivoyat keltiriladi: “Imom Buxoriy bilan Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Hoshid ibn Ismoil aytadi: “Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarini biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming Hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: Sen nega hadislarini yozmaysan?, -deb ta'na qilgan vaqtimizda: Sizlar yozib borayotgan hadislarini men ustoz og'zidan yodlab olayotirman, - dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarini bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganlaridan tuzatib oladigan bo'ldik”².

Imom Ismoil al-Buxoriy juda ko'p zabardast olimlardan ta'lim oladi. Manbalarda alloma ustozlarining soni to'qson nafarga yaqin bo'lgan deb ko'rsatiladi. Muhammad ibn Yusuf al-G'artobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy, Ishoq ibn Ibrohim ar-Rahavayh, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali al-Madiniy kabi olimlar uning ustozlari sanaladilar.

Imom Ismoil al-Buxoriyning o'zi ham yirik va mashhur olimlar Ishoq ibn Muhammad al-Ramoziy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Muhammad Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjohlarga ustozlik qilgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, sahovatli inson ham bo'lgan. U hadis ilmining yetuk olimi sanalsada, zamondoshlari hamda shogirdlaridan ham ilm o'rgangan. Alloma bir ming sakson nafar muhaddisdan hadis eshitgan. Allomaning o'zidan esa to'qson ming nafar kishi ishonarli hadislarini eshitgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Imom Ismoil al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan., 100 ming “sahih” va 200 ming “g'ayri sahih”

² Al-Buxoriy xaqida zamondoshlarining hotiralari. Shamsiddin Bobohonovning Imom Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad” (adab durdonalari) kitobi tarjimasidan olindi.. —Toshkent, O'zbekiston, 1990. 6-8 betlar.

hadislarni yod olgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talaba va ulamolarga hadis ilmidan saboq beradi va mazkur ilmning targ'ibotchisiga aylanadi. Rivoyatlarga ko'ra, xalifaning Buxorodagi noibi Xolid ibn Ahmad ibn Xolid az-Zuhaliy uni saroyga kelib hadis ilmidan saboq berishga taklif etadi. Ammo Imom Ismoil al-Buxoriy bu taklifni qabul etmaydi va: "Men ilmni xorlab sulton amirlar eshigiga olib bormayman. Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarni (ikkinchi rivoyatda saroyidagilarni) uyimga yoki masjidimga yuborsin", - deb javob beradi. Shu bois alloma bilan amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasidagi munosabatga bir oz putur etadi. Bunga ayrim hasadgo'y shaxslarning ig'volari ham sabab bo'ladi. Amir allomaning shahardan chiqib ketishiga farmon beradi. Samarqand ulamolari Imom Ismoil al-Buxoriyni o'z yurtlariga taklif etadilar. Yo'lga chiqqan Imom Ismoil al-Buxoriy Samarqand shahriga yaqin bo'lgan Haftang qishlog'i (hozirgi Poyariq tumanining hududi)da betob bo'lib qoladi va shu erda hijriy 256 yili ramazon oyining oxirgi kuni (milodiy 872 yil 1 sentyabr) 62 yoshida vafot etadi va shu erga dafn etiladi.

Imom Ismoil al-Buxoriy juda boy ijodiy meros qoldirgan. Uning "Al-jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam"), "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari"), "At-tarix al-kibor" ("Katta tarix"), "At-tarix as-sag'iy", ("Kichik tarix"), "Al-qiroatu xalfa-l-Imom" ("Imom ortida turib o'qish"), "Vaf'ul-yadini fi-s-saloti" ("Namozda ikki qo'lni ko'tarish") kabi asarlari mavjud bo'lib, ularning qo'lyozmalari bizgacha etib kelgan. Ammo "At-tarix al-avsat" ("O'rta tarix"), "At-tafsir al-kabir" ("Katta tafsir"), "Al-jome' al-kabir" ("Katta to'plam"), "Kitob-ul-hiba" ("Hadya kitobi") nomli asarlari ham bo'lganligi ma'lum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan. Shubhasiz, yuqorida nomlari qayd etib o'tilgan asarlarining eng yirigi, shoh asari "Al-Jome as-Sahih"dir. Bu asar "Sahih al-Buxoriy" nomi bilan ham dunyoga mashhur. 4 jilddan iborat mazkur kitobda payg'ambarimiz Muhammad Alayhis-salom hadislaridan tashqari, islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berilgan. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng "sahih" hamda 4000 ta takrorlanmaydigan hadislar

kiritilgan. Bu kitob Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi.

Islom dini insonni ma'naviy kamolot sari yetaklovchi ta'limotdir. Shu sababli Qur'oni Karimda ham, hadislarda ham yaxshi xulq-odob qoidalari va ularga kishilarning qat'iy amal qilishlari lozimligi borasidagi qarashlar keng targ'ib etilgan. Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-Jome as-Sahih" asarining bir jildiga odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo'lsa, "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") nomli asarda ham ijtimoiy turmushda hamda insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari borasida yanada batafsil ma'lumotlar berilgan. Ushbu asar 644 bobda bayon etilgan 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan.

I.3. "Al-Jomi as-Sahih" – Imom al-Buxoriyning shoh asari

"Al-Jomi as-Sahih" (asl nomi "Sahihi Buxoriy" – "Ishonchli to'plam") – 6 ta ishonchli hadis to'plamidan biri. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning 4 jilddan iborat bu hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar to'plagan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To'plamda fiqh, oila, nikoh, meros, ilm-ma'rifat, imon, e'tiqod, axloq-odob, ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar yoritilgan. Unda islom ta'limotiga aloqador mavzular bilan birga o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid ko'pdan-ko'p ma'lumotlar mavjud.

Imom al Buxoriy 600 mingga yaqin hadis to'plab, ulardan takrorlanadiganlari bilan 7275 tasini ishonchli deb hisoblab kitobiga kiritgan. To'plamda takrorlanmaydigan hadislar soni 4000 tadan iborat. "Sahih", ya'ni ishonarli hadislarini boshqa hadislardan ajratib, alohida to'plam shakliga keltirish an'anasini birinchi bo'lib Imom al Buxoriy boshlab bergan. Shundan keyin Imom Muslim, Imom at Termiziy, Imom an Nasoiy, Imom Abu Dovud, Ibn Moja kabi yirik muhaddislar ham uning izidan borib, sahih hadislarini alohida to'plam shaklida tasnif etishni boshlaganlar. Imom al Buxoriyning bu shoh asari dunyo yuzini ko'rganiga qariyb 1200 yil bo'ldi. Lekin u to shu vaqtgacha ham islom

manbalari bo'yicha Qur'oni karimdan keyin ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda. Ushbu asarning ko'plab nusxalari islom olami bo'ylab keng tarqalgan. Hatto o'rta asrda yashagan ayrim adib va xattotlar uchun bu asardan nusxa ko'chirib berish an'anasi bo'lgan. Asarning asrlar osha bizgacha yetib kelgan turli arab yozuvi uslubida bitilgan qo'lyozma nusxalari mamlakatimizda va xorijiy yurtlarda mavjud. "Al-Jomi as-Sahih" asariga ko'pdan ko'p sharhlar yozilgan va u muqim manba sifatida u qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari tashabbusi bilan mamlakatimizda islom dunyosi vakillari ishtirokida asar muallifi – Imom al Buxoriyning 1200 yillik yubileyi nishonlangan edi. Shu munosabat bilan "Sahihi Buxoriy" arab tilida Toshkentda qayta nashr etildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'nggina to'laligicha o'zbek tiliga o'girildi: hozirgi "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 4 jildda (1j. 1991, 2j, 1996, 3j. 1994, 4j. - 1992), 2nashri esa 1997 yilda chop etildi. Shuni ham qayd etish lozimki, asarda hadisning naql qiluvchi roviylariga katta ahamiyat berilgan. Pekin hadislardan olinadigan shar'iy hukmlar to'g'risida muallif aniq ko'rsatma bermagan. Shuning uchun asardagi barcha hadisni kitobxon o'zicha hayotga tatbiq etmasdan, islom huquqiga oid fiqhiy kitoblar orqali amal qilishlari tavsiya etiladi. Masalan, mazmuni bir-biriga zid bo'lgan ikki hadisning, albatta, biri keyinroq aytilgan bo'lib, oldingisida aytilgan hukmni bekor qiladi, ya'ni amaldan qoldiradi. Lekin qaysinisi birinchi, qaysinisi ikkinchi ekani to'plamda ko'rsatilmagan. Uni faqat fikhshunos mujtahid olimlarga ajrata oladilar.

Bundan tashqari, to'plamda mamlakatimiz musulmonlari amal qilib kelayotgan hanafiylik mazxabiga to'g'ri tushmaydigan, balki boshqa uch mazhabga asos sifatida xizmat qiladigan hadislar ham talaygina. Binobarin, ibodat qoidalariga doir hadislar ichida shunga o'xshashlari uchrab qolganda, mazxabimizga shubha qilmaslik, balki bizning qilayotgan amallarimiz uchun boshqa hadis to'plamlarida asos bo'ladigan hadislar borligini unutmaslik lozim.

Islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur'oni Karimda ta'kidlanganidek, Islom dini ta'limotining

yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e'tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat'iy amal qilinishiga bog'liqligi ko'rsatilgan:

- to'g'ri e'tiqodli bo'lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;
- kishi o'z ustida ishlamog'i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog'i¹

(Keyingi misollar ham ushbu kitobdan olindi).

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o'tiladi. Sanab o'tilgan belgilarning har biri inson ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi va mukammallashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: "qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur", "o'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz" (3-4-boblar); "Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq" (20-bob).

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lmagan munofiqlik xislati xususida ham so'z yuritiladi, chunonchi, «Rasululloh sallallohu alayhi vassalam aytganlar: "quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lg'aydir, kimdagi, ulardan bittasi bo'lsa uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladi:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urushib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilaydir (25-bob).

Hadislarda inson ma'naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi

¹ Al-Buhoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Xadis. 4 jildli kitob. 1-kitob. Al-jome' as-saxix (Ishonarli to'plam). Arabchadan 3. Ismoil tarjimai. – Toshkent, Qomuslar bosh taxririya, 1991. 14-bet

bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo'lib etishishida muhim omildir deya ko'rsatiladi. "Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig'for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham". Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi aloqida ta'kidlab ko'rsatiladi. "Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati" borasidagi hadis (21-bob) da ilm o'rganish ko'p yoqqan yomg'irga qiyoslanadi va ilm ahli quyidagi uch turga bo'ladi: "Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar va ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qurg'oq, qattiq bo'lib, suvni yemmasdan o'ziga to'playdir, undan Olloh taolo bandalari foydalangaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, hayvonlari va ekinlarini sug'orgaydirlar. Ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydir, ko'katni ham ko'kartirmaydir. Bularni quyidagicha muhoyasa qilish mumkindir: Bir kishi Olloh ilmini (Islomni) teran o'rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadi va Olloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabburlik qilib, o'zi ham o'rganmaydir, o'zgalarga ham o'rgatmaydir".

Ammo ilmga e'tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi. Hatto "Rasululloh quyidagilar qiyomat alomatlaridir, deganlar:

- ilmning susaymog'i;
- jaholatning kuchaymog'i;
- zinoning avj olmog'i;
- xotinlarning ko'paymog'i;
- erkaklarning ozaymog'i"

Demak, qiyomatni odamlarning o'zlari sodir etadilar. "Ilm ravnaq topmagan mamlakatda zino avj olgan, o'zaro urushlar kuchayib, erkaklar ozayib ketganda albatta, qiyomat qoyim bo'ladi" (22-bob). Shu bois "Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar", - deyiladi (637-hadis). Islomda ikki xil ilm haqida so'z yuritiladi: biri huquqiy (fikh), diniy yo'l-yo'riqlar

to'g'risidagi ilm bo'lsa, ikkinchisi dunyoviy ilmlardir. Har ikki turdagi bilimlarni chuqur egallash va ularga qat'iy amal qilish har bir mo''min uchun farz hisoblanadi.

“Ilmning ofati unutishdir. Uni noahil kishiga gapirish esa uni zoe qilishdir”¹ mazmunidagi hadis orqali o'zlashtirilgan ilmni takrorlab borish, faqat chuqur va puxta bilimlargagina ega bo'lgan kishilarning atrofdagilarga ilm berishining maqbul ekanligiga urg'u beriladi. Shuningdek, hadislarda ilmning kishilarni fahm-farosatli, o'tkir zehnli, zukko hamda xotirani kuchli qilishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi va “Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar”, - deya da'vat etiladi. “Olim bo'l, ilm beruvchi bo'l yoki ilm o'rgatuvchi bo'l yoki tinglovchi bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan” mazmunini ilgari suruvchi hadisning bayon etilishi orqali ham ilmli bo'lish insonni falokat va uning yomon oqibatlaridan saqlovchi omil ekanligiga urg'u beriladi (41-hadis).

Bir qator hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Xususan, “Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir” (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi va ilm ahlini ana shunga da'vat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil insonning bilimga boy, xushxulq, sog'lom bo'lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo'lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi: “Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasulloh sallallohu alayhivassalamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasulloh sallollohu alayhivasallam: ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas, bir kishiga Olloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchi kishiga Olloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa”, – deydilar»¹.

¹ Muxammad payg'ambar qissasi. Xadislar. – Toshkent, Kamalak, 1991, 60-bet.

¹ Al-Buhoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Xadis. 4 jildli kitob. 1-kitob. Al-jome' as-saxix (Ishonarli to'plam). Arabchadan 3. Ismoil tarjimai. – Toshkent, Qomuslar bosh taxririya, 1991. 33-bet.

Ma'lumki, islom ta'limotida eng yuksak xislatlardan biri sifatida ota-onaga g'amxo'rlik, ularni e'zozlash, ota-ona haqqini o'z o'rniga qo'yish, farzandning ular oldidagi haqqi borasidagi masalalarning yoritilgiga alohida e'tibor beriladi. Hadislarda ham ana shu talablar o'z ifodasini topgan. Ota-onani xafa qilib yig'latish eng katta gunohlari sifatida e'tirof etilgani quyidagi, ya'ni, Olloh Taoloning mavjudligiga shirk keltirish, odam o'ldirish, urush maydonidan qochish, afifa (o'zini pokiza saqlagan) xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijaraxo'rlik), etimlar molini emoq, Olloh Taoloning qudrati va irodasini inkor qilish, odamlarni masxara qilish hamda ularni kamsitish kabi holatlar qatorida tilga olib o'tiladi. Hadislarda ota-onaning dilini og'ritib, ozor berish, ularni xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi: "Abdulloh ibn Amr (Roziyollohu anhu) aytadilar: bir kishi Rasulloh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay'at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo'lmay, xafalikdan yig'lab qolgan edilar. Shunda Rasulloh: "Sen hozir ota-onang oldiga bor! hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo'ldim, deb ularni xursand qil", -dedilar (13-hadis). Islomda eng katta gunoh Olloh Taologa shirk keltirish va ota-onaga oq bo'lish hisoblanishi 15-hadisda alohida ta'kidlanadi. Ota-onaning ham o'z navbatida farzandlarini tarbiyat etmog'i, odob o'rgatishi, yaxshilik qilishi lozimligi ta'kidlanadi: "Namir ibn Avs aytishlaricha, o'tmish kishilari bolalarning solih-qobil bo'lishlari Olloh Taoloning tavfiqi bilan bo'ladi, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalari vazifasidir, der edilar" (92-hadis)"².

Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo'ynida ota-onaning haqqi bo'lganidek, bolaning ham haqqi borligi xususidagi g'oyalar Qur'oni Karimda ham, hadisi Sharifda ham uqtiriladi.

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do'st, tinch-totuv yashashlari, o'zaro muruvvatli, mehr-shafqatli bo'lishlari kerakligi haqidagi g'oya ham ilgari suriladi.

² Al-Buhoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Arab durdonlari). Tarjimon, muqaddima va izoxlar muallifi Sh.Burhonov. – Toshkent, O'zbekiston, 1990, 16-bet

Bu g'oya opa-singil, aka-uka, qarindosh hamda qo'shnilar o'rtasida tashkil etiladigan muomala va munosabatlar mazmunining ochib berishga yo'naltirilgan hadislar mohiyatida aks etadi. Ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lgan inson ota-ona, opa-singil, aka-uka va qo'shnilarga yaxshilik qiladi, bu yaxshilik ular o'rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovardida jamiyat taraqqiy etadi, tinchlik barqaror bo'ladi, aholi farovon hayot kechiradi.

Har bir inson qilgan ezgu amallari va odob-axloqi bilan yaxshi nom qoldiradi. Mazkur holat hadislar mazmunida shunday talqin etiladi: «Mo'min kishiga vafotidan keyin savobi tegib etib turadigan amali solihlar quyidagilardir:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solih farzandi.
3. Meros qoldirgan qur'oni.
4. Qurgan masjidi.
5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.
6. Qazigan arig'i.
7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa - ehson uchun ajratgan moli”¹.

Haqiqatdan ham inson hayotdan o'tadi, lekin u ilm-ma'rifat, ziyo tarqatishda, xalq farovonligi yo'lida qilgan ishlari bilan xalq orasida abadiy qoladi. Ana shunday xislatlardan eng muhimi saxovatdir.

Bir qator hadislar mazmunan insonning saxovatli bo'lishga undaydi. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi, uning ravnaqi yo'lida mehnat qiladi, atrofdagilarni o'zi ega bo'lgan ne'matlardan bahramand etadi.

Hadislarda kishilar ana shu xislatga egaliklariga ko'ra quyidagi to'rt guruhga bo'linadilar:

1. Alloh taolo bir bandaga mol bergan va ilm bergan. U bandaga berilgan mol va ilmning tasarrufida taqvo qiladi va silai rahm qiladi. Ilmi va molidan Alloq uchun xaq ajratadi. Bu eng afzal o'rin.

2. Bir banda bor. Alloh unga ilm bergan, lekin mol bermagan. Lekin uning

¹ O'sha asar, 71-bet.

niyati to'g'ri: agar Alloh menga mol bersaydi falonchiga o'xshab sarf qilardim. U shu niyatiga qarab teng ajr oladi.

3. Bir banda bor. Alloh unga mol bergan, ilm bermagan. Mol tasarrufida Allohdan qo'rqmaydi. Molidan qarindoshlariga bermaydi. Bu esa eng yomon o'rindir.

4. Bir banda bor. Alloh unga mol ham, ilm ham bermagan. U aytadiki, agar Alloh menga ham bergandaydi falonchiga o'xshash ish qilardim. U shu niyati bilan o'sha kishiga barobar hisoblanadi (savob va gunohda)¹.

Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabilar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik. nafsu havo hamda shahvoniy hissiyotlarga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. Aksariyat Hadislar mazmunini yoritishda "yaxshi siyrat" va "iqtisod" tushunchalari qo'llaniladi, chunonchi, "Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik etmish xislatdan bir bo'lagidir" (468-hadis)². "Yaxshi siyrat" tushunchasi yaxshi muomala, go'zal odob-axloq, ibratli hayot, shuningdek, chiroyli hayot, tashqi ko'rinish ma'nosini anglatga, "iqtisod" tushunchasi har bir xatti-harakatni tashkil etishda ma'lum me'yorga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligini nazarda tutadi. Ushbu g'oya quyidagi hadisda ham o'z ifodasini topgan: "Sizlarning uchta ishingiz uchun Olloh Taolo rozi va uchta ishingiz uchun g'azablik bo'ladi: birinchisi, ibodatni Ollohnin o'zigagina qilib, ibodatda boshqa narsalarni unga sherik qilmasliklaringizga; ikkinchisi, Olloh Taoloning dini va qur'oniga e'tiqod qilmog'ingizga; uchinchisi, Olloh Taolo sizga boshliq qilib qo'ygan kishiga xayrixoh bo'lmog'ingizga rozi bo'lsa, bo'lar-bo'lmas gapni naql qilishib yurmog'ingizga, ko'p surishtiraverishlik yoki so'rashlik (gadoylik qilish) va molni noo'rin erlarga sarf qilib zoe qilmog'ingizga g'azablanadi" deganlarini isbotlaydi" (206-bob, 242-hadis).

Shu bilan birga, hadislarda yana kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs

¹ Al-Buhoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent, O'zbekiston, 1990. 357-bet.

² O'sha asar, 137-bet.

qo'yishdan saqlanish kerakligi, shuningdek, kelajakka nisbatan ishonch bilan yashash xususidagi fikrlar ham o'rin olgan. Chunonchi, "Birortangiz ekish uchun qo'lingizda biror ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsayu, qoyim bo'lishidan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta ekib qo'ying", - degan fikrlar hayotga bo'lgan umid, kelajakka bo'lgan ishonchning yorqin ifodasidir.

Xulq-odob haqidagi hadislardan ezgu insoniy xislatlar ulug'lanib, gunoh sanalgan illatlar qoraladi.

Bundan tashqari, sha'riy udum va urf-odatlarga amal qilish, ularni o'tkazishga oid xulq-odob qoidalari ham bayon etiladi. Turli marosimlarning o'tkazish tartibi, safar qoidalari, salomatlikni saqlash, salomlashish, muomala madaniyati, bemor kishi holini so'rash odobi, kiyinish qoidalari, emoq-ichmoq, so'zlashish odobi va hokazolar haqida turli tavsiyalar beriladiki, ular bevosita keyingi davrlarda yaratilgan odob-axloq qoidalari borasidagi risolalarning mazmunini yoritishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Hadislarda jamiyat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotining ta'minlanishiga ta'sir etuvchi muammolarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Ularning orasida ekologik muammolarga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, necha asrlardan buyon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ana shunday muammolar mohiyatini o'z mazmunida aks ettirgan hadislarda ekin hamda ko'chatlarni o'tkazish, ularni himoya etish, ariq-zovurlar qazish va ularni vaqti-vaqti bilan tozalab turish, suv chiqarish kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga undovchi g'oyalar mujassamlangan. Masalan, tirik jonivorlarni o'ldirmaslik (shariatdan o'ldirishga buyurilgan ilon va chayondan bo'lak), jonivorlarga g'amxo'rlik qilish, ularga ozor bermaslik, inson yashaydigan joyni unga ozor beradigan narsalardan tozalash (227 va 446-hadislar), kishilarga soya beruvchi daraxtlarni kesmaslik, hovli sahnlarini toza tutish haqidagi hadislar¹ shular jumlasidan.

Hadislarda yomon ishlar, yomon illatlar, yomon xatti-harakatlar "gunoh"

¹ Al-Buhoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent, O'zbekiston, 1990, 78-, 123-betlar.

sifatida qoralansa, inson farovonligi, jamiyat ravnaqi uchun qilinadigan yaxshi, ezgu xatti-harakatlar, faoliyat “savob” tarzida olqishlanadi.

Shunga ko'ra, yetim molini yeyish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gapni ko'p gapirish va boshqa illatlar gunoh hisoblanasa, ota-ona, keksalar, zaiflar va muhtojlarga g'amxo'rlik qilish, ularni yo'qlab turish, marhumlarni yaxshi so'zlar bilan xotirlash, birov ularning ustidan kulmasligini ta'minlash, omonatga xiyonat qilmaslik kabilar savob sanalishi alohida ta'kidlanadi.

Ma'lumki, inson kamoloti bevosita uning salomatligi bilan bog'liqdir. Zero, sog'lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi yo'lida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar bo'lib etishadi. Hadislar, umuman, Islom ta'limotida tozalik va poklik, shu jumladan, ruhiy va jismoniy poklikka katta e'tibor beriladi. “Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. O'zi oliyhimmatdir, oliyhimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiq ko'ngil, ochiq ko'ngillikni yaxshi ko'radi. Eshiklarning oldini pokiza tutinglar” (190-hadis).

Hadislarda inson erki, ozodligi va unga daxl qilmaslik masalalarining yoritilishiga ham katta ahamiyat berilgan.

Islom ta'limotida har tomonlama yetuk bo'lishi uchun insonning erkin bo'lishi kerakligi borasidagi fikrlar Qur'oni Karimda ham, hadis sharifda ham birdek e'tirof etilgan. Xususan: “Olloh taologa farzlardan so'ng amali solihlarning eng sevimlisi musulmon kishining diliga xursandchilik solishdir” (33-hadis); “Olloh o'zi kechirguvchi zot, kechirguvchini yaxshi ko'radi” (191-hadis); “Olloh taolo zulm qilmagan qozi bilan birgadir. Agar qozi jabr qilsa, Olloh undan uzoqlashadi va shayton unga yaqinlashadi” (194-hadis) kabi hadislar² buning yaqqol dalilidir. Chunki inson qanchalik qadrlansa, barcha ezgulik va yaxshiliklar, insonga yo'naltirilgan bo'lsa, uning manfaati uchun xizmat qilsa, inson ham shunga ko'ra kamol topaveradi, yuksaklikka ko'tariladi, o'z navbatida bunday insonlar yashaydigan jamiyat ham rivojlanaveradi.

² Al-Buhoriy, Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – Toshkent, O'zbekiston, 1990, 71-bet.

Demak, hadislar Muhammad payg'ambarimizning sunnatlari bo'lib, mazmunan har bir mo'minning ishonchi, e'tiqodini mustahkamlaydi, shu bilan insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydi. «Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham har bir shaxsni aqliy, jismoniy jihatdan kamolga etkazishga oid e'tiqod va iymondan iborat bo'lib, faqat ezgulikka xizmat qilish, oliyjanob bo'lish, pokiza yurish, bir burda luqmani halol qilib yeyish, jaholat va jaholatparastlikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh-urug'larining, millatining va vatanining qadriyatlarini asrashdan iboratdir»³. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

I bob bo'yicha xulosa

Hadis - islom dini talimoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad(s.a.v.) payg'abarning hayoti va foliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad(s.a.v.) payg'ambar biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlaricha qilayotgan biron ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomlari yani, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil sifatlar qoralanadi.

Imom Buxoriy nomi butun islom olamida izzat-ehtirom bilan tilga olinadi. 1974 yili Samarqandda Imom Buxoriy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazilganligi, shoh asarlari sanalmish "al-Jome as-Sahih" va

³ Asror Samad. Payg'ambar, din va dindorlik. Imom Ismoil al-Buhoriyning «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») kitobiga so'nggi so'z. – Toshkent, O'zbekiston, 1990, 183-184-betlar.

“al-Aab al-mufrad” kitoblarining mamlakatimizda qaytadan nashr qilinishi fikrimizga dalil bo’la oladi. Imom Buxoriy o’ta iste’dodli, ziyrak, muhofazalari o’tkir olim bo’lib, butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo’lsa moddiy jihatdan, odamlarga biror naf yetkazishni asosiy maqsad deb bilgan.

“Al-Jomi as-Sahih”da insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo’lib, ushbu fazilatlar sirasiga o’zgalarga mehr-oqibat ko’rsatish, saxiylik, ochiq ko’ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo’lish, ularga g’amxo’rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug’lash, halollik, poklik, do’stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo’ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o’zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o’z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karimda qayd etilgan ko’rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo’lib xizmat qiladi.

II.BOB. IMOM ISMOIL AL-BUXORIYNING HADISLARIDA MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYA TALQINI VA UNI O'QUVCHILARDA SHAKLLANTIRISHNING AMALIY SHART-SHAROITLARI

II.1. Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni

Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida tarbiya, axloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqni targ'ib qilish bilan bir qatorda razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nisbatan nafrat tuyg'ulari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur hadislar jamiyatimiz kishilarini, xususan yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek masuliyatli ishga o'z hissasini qo'shadi.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom hadisleri

Ilmu hunarni Xitoydan bo'lsa ham borib o'rganinglar (126-hadis).

Olim bo'l (ilm beruvchi bo'l) yoki ilm o'rganuvchi bo'l, yoki tinglovchi bo'l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo'l. Beshinchisi bo'lma, halok bo'lasan (141-hadis).

Sadaqaning afzali, musulmon kishi ilm o'rganib, so'ngra birodariga o'rgatishdir (150-hadis).

Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinning ustunidir (568-hadis).

Ilm ikki xildir, biri qalbda bo'ladi, uni ilmi nofe' (foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo'ladi, u odam bolasiga yuborgan Alloh taoloning hujjatidir (569-hadis).

Ibodat fazilatidan ko'ra ilm fazilati menga sevimliroqdir. Diningizning afzali taqvodir (578-hadis).

Ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar (637-hadis).

Ilmni o'rganib uni hech kimga aytmayotgan odam, boylikni to'plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o'xshaydi (740-hadis).

Diling yumshab hojating ravon bo'lishini hohlaysanmi? Etimga rahm qil, boshini sila, ovqatingdan edir, shunda diling yumshaydi, va hojating chiqadi (17-hadis).

Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. Dehqonchilik muborak kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar (44-hadis).

Otangni do'stligini davom etkiz, uni uzma, Alloh nuringni uchirib qo'ymasin (48-hadis).

Ziyoratingizga (ko'rgani) kelgan odamni hurmat qilinglar! (67-hadis).

Oralaringizda salom berishni keng tarqatinglar, bir-birlaringga muhabbatlaring ziyoda bo'ladi (142-hadis).

Kasbning afzali halol savdo va kishining qo'l mehnatidir (151-hadis).

Mo'minlarning afzali xulqi yaxshirog'idir (153-hadis).

Nonni hurmatlanglar! (170-hadis).

Baxtli kishi, fitnalardan yiroq bo'lgan va musibat etganda sabr qilgan kishidir (218-hadis).

Ota-onaning vafotidan keyin uning do'stlariga yaxshilik qilish ota-onaga yaxshilik qilishning afzalidir (230-hadis).

So'zida turish, ahdiga vafo qilish iymondandir (234-hadis).

Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar (309-hadis).

Ishni puxta qilmoq ehtiyotkorlikdir (399-hadis).

Hayoning turgan-bitgani yaxshidir (406-hadis).

Hayo faqat yaxshilik keltiradi (407-hadis).

Hayo iymondandir (408-hadis).

Sharm-hayo va kamsuxanlik imonning ikki bulagidir. Behayolik va gapdonlik munofiqlikning bir bo'lagidir (409-hadis).

Ikkita yomon xislat mumin kishida jam bo'lmaydi:

1. Baxillik.

2. Badxulqlik (413-hadis).

Eng yaxshilar Qur'onni o'rganib, Qur'onni o'rgatgan kishilardir (417-hadis).

Yaxshilaringiz o'z ahliga, oila a'zolariga yaxshi bo'lganlaringizdir (420-hadis).

Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaatlirog'idir (427-hadis).

Yaxshilikka dalolat qiluvchi kishi yaxshilikni qilgan kishi bilan (savobda) barobardir (443-hadis).

Og'ir bosiqlikda foyda bor va shoshma-shosharda zarar bordir (491-hadis).

Salom-bu Allohning ismlaridandir. Alloh uni nozil qildi, uni oralaringizda keng tarqating. Albatta musulmon kishi bir qavm oldidan o'tsa-yu, unga salom bersa, ular alik olsa, salom bergan kishiga shu qavmga salomni eslatganlik darajasi yoziladi. Agar ular alik olmasalar ulardan afzalroq zotlar (farishtalar) alik olishadi (496-hadis).

Otaga itoat qilish – Allohga itoat qilishdir. Otaga osiy bo'lish – Allohga osiy bo'lishdir (530-hadis).

Bir soat ilm o'rganish, kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutib chiqqandan yaxshiroqdir (536-hadis).

Kasal ko'rgani borgan kishi jannat bog'larida yurgandekdir (548-hadis).

Yumshoq bo'l, qo'pollik va behayolikdan saqlan! (561-hadis)

Yaxshilik qilmoq-yomon falokatlardan asraydi (580-hadis).

Har bir yolg'on gap inson bolasiga gunoh bo'lib yoziladi, lekin uch yolg'on yozilmaydi:

1.Kishi urushda (dushmanga) yolg'on ishlatadi, chunki urushning o'zi hiyladir.

2.Kishi xotiniga murosa uchun yolg'on gapiradi.

3.Kishi ikki kishining orasini isloh qilish (yarashtirish) uchun yolg'on gapiradi (615-hadis).

Yaxshilikni o'rgatuvchi kishiga har bir narsa talabi mag'firat qiladi, hatto dengizdagi baliqlar ham (748-hadis).

Otangni do'sti bilan do'stlik aloqasini davom ettirishing otangga qilingan yaxshilikdan hisoblanadi (751-hadis).

Kim otasi qabrda yotganda ham yaxshilik qilishni hohlasa otasidan keyin otasining do'stlariga yaxshilik qilsin (769-hadis).

Kimki ota-onasiga yaxshilik qilsa, unga qanday yaxshi; Alloh uning umrini ziyoda qiladi (812-hadis).

Kimki dasturxondagi ushoqlarni terib esa, mag'firat qilinadi (815-hadis).

Kimki o'zini katta olsa, yurishida o'ziga bino qo'ysa, oxirtda allohning g'azabiga uchraydi (821-hadis).

Kimki biror kishini yomon laqab bilan chaqirsa, farishtalar unga la'nat o'qiydi (831-hadis).

Kimki ko'zi ojiz odamni 40 qadam etaklagan bo'lsa, unga jannat vojib bo'libdi (863-hadis).

Kimki odamlarning yaxshiligiga rahmat aytmasa, Allohga ham shukur qilmaydi (879-hadis).

Kim odamlardan uyalmasa, Allohdan ham uyalmaydi (887-hadis).

Kimki biror yomonlik qilsa, shu dunyodayoq jazosini tortadi (890-hadis).

Mo'min kishi sodda va olijanobdir, fosiq kishi pastkash va aldoqchidir (897-hadis).

Qo'lidan tilidan ozor etmaydigan kishi musulmondur (901-hadis).

Makr, hiyla va xiyonatning joyi duzaxdir (907-hadis).

Joni bor narsani o'q otishda nishon qilmanglar (946-hadis).

Bir-birlaringizga yolg'on ishlatib tuhmat qilmanglar (990-hadis).

Ishni puxta va yaxshilab qilgan kishining Alloh yaxshi ko'radi (997-hadis).

Oson ko'rsatinglar, qiyin ko'rsatmanglar, xursand qilinglar, nafratlantirmanglar (odamlarni qochirmanglar) (998-hadis).

Shaxid bo'lgan kishi qarindoshlaridan 70 kishini shafolat qilishlikka xuquq beriladi (999-hadis).

Qasam, qasamyod qiluvchining niyatiga qarab e'tibor qilinadi.

Odamlar niyatlariga muvofiq tiriltiriladilar (1000-hadis).

Hadisi shariflar

- Kishi musulmon birodarini uchratganida “Assalomu alaykum va rahmatulloh” desin.

- Birinchi bo’lib salom beradiganlar Alloh nazdida yaxshi odamlardir.

- Qo’l berib ko’rishing o’rtangizdan adovat ketadi. Bir-biringizga hadyalar berib turing mehringiz ortadi, gina-qudrat bo’lmaydi.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar:

- Xudojo’yligingizni hech qo’ymang! Biror yomonlik qilib qo’ysangiz, albatta uni yuvadigan yaxshilik ham qiling! Odamlar bilan muomalada xushfe’l bo’ling.

Musulmonning birodari oldida olti burchi bor.

- Ular qaysilar, Rasululloh?

- Uchrashganda salom berish, chaqirganida borish, so’raganida maslahat berish, aksa urib “alhamdullilah” desa “yarhamuka-l-loh” deb tashmit aytish, betob bo’lsa, ziyorat qilish, vafot etsa, janozasida qatnashish.

- Kechirimli bo’l, senga ham kechirimli bo’lishadi.

- Kichigimizni izzat, kattamizni hurmat qilmagan bizning ummatdan emas.

Rasululloh (s.a.v.) dedilar:

- Birodaringga kulib boqishing – sadaqa, yaxshilikka undab, yomonlikdan qaytarishing – sadaqa. Adashgan kimsaga yo’l ko’rsatishining – sadaqa. Senga yomon ko’z bilan qaragan kishiga yaxshi ko’z bilan qarashing – sadaqa. Chelagingdagi suvingdan birodaringga quyib berishing – sadaqa.

- Musulmon-musulmonga birodar. Birodari bilan oldi-sotdi qilganda molining nuqsonini aytib qo’ymaslik halollikdan emas.

- Har dinning o’ziga xos xususiyati bor. Musulmonlikning xususiyati – sharm-hayo.

- Hayo va kamgaplik imondandir, og’zi shaloqlik va sergaplik esa – munofiqlikdan.

- Uch kishi bo’lsangiz, ikkitangiz bir-biringiz bilan shivirlashmang. Uchinchigizga og’ir botadi.

- Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan kishi yaxshi gapni gapirsin yo sukut saqlasin; qo'shnisini hurmat qilsin; mehmonga izzat-ikrom ko'rsatsin.

- Rasululloh (s.a.v.) erkak kishining ikki ayol o'rtasida yurishini taqiqlaganlar.

- Zinhor yig'inda o'tirgan birodaringizni turg'azib o'rniga o'tirmang.

Rasululloh (s.a.v.):

- Qalbida zarracha kibru havosi bo'lgan kishi jannatga kirmaydi,-dedilar.

Bir kishi so'radi:

- Odam chiroyli kiyim, yaxshi poyafzal kiyib, yasanib yurishni yaxshi ko'rsa-chi?

Alloh o'zi go'zal va go'zallikni suyadi. Kibru havo esa gerdayish va odamlarni mensimaslikdir, -dedilar.

- Yo'lda yotgan tikan, shoxni olib tashlagan kishidan Alloh mamnun bo'ladi va uning gunohlaridan kechadi.

Ayrim hadislarining izohini keltirib o'tamiz.

1. Ikki musulmon kishi uchrashganda salomlashish musulmonlik alomati va odoblaridan bo'lib, u islomdagi eng yaxshi amallardan biridir. Rasululloh (s.a.v.)dan: "Islomdagi amallardan eng yaxshisi qaysi, deb so'rashganda, Muhtojlarga taom bermoq hamda tanigan va tanimagan kishiga salom bermoq", deb javob berganlar (muttafaqun alayhi). Salomlashish odobi haqida ham ko'plab hadislar vorid bo'lgan. Ularning orasida: "Ulovdagi kishi piyodaga, yulovchi to'xtab turgan kishiga, ozchilik ko'pchilikka va yoshi kichik yoshi katta odamga birinchi bo'lib salom beradi" deyilgan (muttafaqun alayhi). Ammo kichikdan katta yoshdagi odam kamtarlik va ta'lim uchun salom bersa, bu fazilatdir. Alloh taolo Qur'oni karimda: "Qachon sizlarga biror salomlashish (iborasi) bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o'sha (iborani)ni qaytaringiz" - deb marhammat qilgan ("Niso", 86). Mana shu oyatga binoan, salom berish sunnat, alik olish esa farz bo'lib, salom beruvchi "assalomu alaikum" desa, "va alaykumu-s-salom va rahmatulloh" deb alik olinadi. Agar u "assalomu

alaykum va rahmatulloh” deb salom bersa, “va alaykumu-s-salom va rahmatullohi va barakotuh” deb alik olinadi.

2. Bemor kishini ziyorat qilish ham islomda buyurilgan amallardan bo‘lib, uning fazilati haqida Paig‘ambarimiz (a.s.) shunday deganlar: “Musulmon kishi qachon bemor birodarining ziyoratiga borsa, mo u erdan qaytib kelgunicha jannat bog‘larida sayr silib yurgan bo‘ladi” (Imom Muslim rivoyati). Bemorning ziyoratiga borishning ham o‘ziga xos odoblari bor. Masalan, bemor ko‘rgani borgan odam uning haqqiga shifo so‘rab duo qiladi, sog‘ayib qolganini aytib ko‘nglini ko‘taradi, yonida ko‘p o‘tirmaydi, oldida taom emaydi.

3. Musulmonning ikkinchi birodari zimmasidagi haqlaridan yana biri – yaqini yoki tanishlaridan birining vafot etganini eshitganda, uning janozasida qatnashishdir. Albatta, janaza namozida mayyitning haqqiga Allohdan mag‘firat so‘rab duo qilinadi. Alloh taolo ko‘pchilikning duosini ijobat qilib, mayyitning gunohlarini mag‘firat aylash haqida Payg‘ambarimizdan quyidagi hadis vorid bo‘lgan: “Biror musulmon vafot etib, uning janozasida Allohga biron-bir narsani sherik qilmagan qirq nafar kishi qatnashsa, Alloh taolo ularning mayyit haqqiga qilgan duolarini ijobat aylaydi (Imom Muslim rivoyati)”. Bundan tashqari, janozada qatnashishning savobi haqida ham hadis rivoyat qilingan bo‘lib, unda: “Janaza namoziga qatnashgan kishiga bir qiyrot savob, dafnda ham qatnashganga ikki qiyrot savob bo‘ladi. Bir qiyrotning mixdori Uxud tog‘iga tengdir”⁴, deyilgan (Imom Buxoriy rivoyati)

4. Musulmon kishi bir birodari tomonidan biron-bir xayrli ziyofatga, xususan, nikoh to‘yiga chaqirilsa borishi shartdir. Darhaqiqat, nikoh to‘yi ko‘pchilik bilan o‘tadigan ziyofat bo‘lib, to‘y egasi uni o‘z xursandchiligini yaqinlari bilan barham ko‘rish maqsadida tashkil qiladi. Taklifiga javoban to‘yga tashrif buyurish bilan uning xursandchiligiga xursandchilik qo‘shgan bo‘ladi. Qolaversa, yoshlarning haqqiga Allohdan baxt-saodat va baraka tilab duo qiladi.

⁴ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.39.

Shuning uchun ham ziyofatga chaqirilgan kishi hatto o'sha kuni nafl ro'za tutgan bo'lsa-da, lekin unga borishi, taom emagan taqdirda ham birodarining haqqiga duo qilib o'tirishi quyidagi hadisi sharifda alohida ta'kidlangan: "Qay biringiz ziyofatga chaqirilsangiz, albatta, unga boringiz. Agar ro'zador bo'lsangiz, duo o'qib turing va agar ro'za tutmagan bo'lsangiz taomdan tanovul qiling" (Imom Muslim rivoyati).

5. Islomda mumin-musulmonlarning bir-birlariga nisbatan hurmat va burchlari shu darajada yuqori qo'yilganki, hatto aksa urganda ham uning haqqiga Allohdan rahmat tilab duo qilish birodarlik burchi hisoblanadi. Bu xususda "Esnash – shaytondan, aksa urish – Rahmondan" mazmunidagi hadis mavjud bo'lib, aksa urgan kishi "alhamdu lilloh", ya'ni Allohga hamd bo'lsin desa, uni eshitgan kishi "yarhamukalloh", ya'ni senga Allohning rahmati bo'lsin deb javob qaytarishi vojib. Agar ko'pchilik odamlardan iborat jamoa turgan bo'lsa, ulardan bir nafari mazkur iborani aytsa ham etarli bo'ladi. Mazkur haq-huquqlarga rioya qilish bilan mo'min-musulmonlar o'rtasida mehr-oqibat, o'zaro hurmat va samimiylilik hislari yanada ziyoda bo'ladi, ulkan savoblarga erishiladi.

Qur'on va hadisda musulmonlarni bir birlariga yaxshilik qilishliklariga alohida to'xtalib o'tilgan. Payg'ambarimizning yana bir hadislarini aynan shu haqda "Odamlarning yuradigan yo'lidan tikanni (xalaqit beruvchi narsani) olib tashlagan kishining o'tgan va keyingi gunohlarini Alloh mag'firat qilsin"⁵.

Hadislar insonlarni bir-birlari bilan ahl bo'lishga undaydi. Quyidagi "Jamoatdan ajralmanglar, chunki shayton yolg'iz kishi bilan birgadir va ikki kishidan uzoqroqdir. Kimki jannat ne'matlarini xohlasa, jamoat bilan birga bo'lsin" deyilgan hadicda ham muminlarni bir birlari bilan ahlilikda hayot kechirishliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Yaxshilikni siz odamlarga talpingan, odamlarsiz turolmaydigan kishidan kutavering.

Ubaydulla Uvatov "Muhaddislar sultoni" nomli kitobida Imom Buxoriyning «Al-adab al-mufrad» asarini tahlil qilib, hadislarda inson ma'naviy kamolotida

⁵ Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). 4 jildli. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1995-1999. –B.109.

muhim o'rin egallaydigan ota va onaga hurmat ota-onaga e'tibor haqida, onani rozi qilish haqida, ota-ona zulm qilsa ham, ularga yaxshilik qilaverish haqida, ota-onaga muloyim gapirish haqida, ota-ona haqini ado qilish haqida, ota-onasini rozi qilgan kishining umri uzoq bo'lishi haqida, ota-onaning yig'lashi haqida, ota-onaning duosi haqidagi bo'limlarda o'z aksini topganini bayon etadi. Ularning ayrimlarini tahlilini keltiradi.

1- bob. Ota-onaga e'tibor haqida

Janobi rabbil olaminning: «**Biz Hamma insonni ota-onasiga yaxshilik qilishni buyurdik**» (29:8) degan oyati karimasi haqida.

1. Abdulloh ibn Mas'ud (r.a.) aytdilar: “Men Rasululloh (s.a.v.)dan qiladigan amallarimizdan Alloh taolaga eng sevimlisi qaysi”, deb so'radim. Rasululloh (s.a.v.): “Farz namozlarni o'z vaqtida o'tish”, — dedilar. Men: “Undan keyin qaysi?” – desam, Rasululloh: “Undan keyin Alloh taolo yo'lida jihad qilish”, dedilar. Abdulloh ibn Mas'ud: “Rasulullohdan men shularnigina so'radim. Agar savolimni davom ettiraversam, Rasululloh (s.a.v.) hammasiga javob beraverardilar”.

2. Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilindi. U kishi: “Alloh taoloning rozi bo'lishi otaning rozi bo'lishiga va uning g'azabi ham otaning g'azabiga bog'liqdir”, dedilar .

2- bob. Onani rozi qilish haqida

3. Bahz ibn Hakim (r.a.) otasi va bobosidan rivoyat qildi, bobosi aytdi: “Rasulullohdan: Ey, Rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi?” – deb so'radim. “Onangga”, dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: “Onangga”, deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: “Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga”, dedilar.

4. Ato ibn Yasar (r.a) aytdilar: “Abdulloh ibn Abbos (r.a.) oldilariga bir kishi kelib: “Men bir xotinga sovchi yubordim. U meni qabul qilmay, boshqa bir kishiga tegib ketdi. Jaxlim chiqib, u xotinni o'ldirgan edim. Endi nima qilsam Alloh taolo tavbamni qabul qiladi?” - deb so'radi. Shunda Abdulloh: “Onang barhayotmi?” - deb so'radilar. U: “Yo'q, vafot etganlar”, degan edi, Abdulloh: “Unday bo'lsa

Alloh taologa tavba qil va toqating boricha toat-ibodat qilib, unga yaqin bo'lishga harakat qil", dedilar". Ato ibn Yasor aytdilar: "Men Abdulloh ibn Abbosga borib, siz nima uchun u kishidan onang tirikmi, deb so'ratingiz", deganimda, u kishi Alloh taologa onani rozi qilishdek maqbulroq hech bir amal borligini bilmayman. Shuning uchun onang tirikmi, deb so'ragan edim", dedilar". Ya'ni onasi tirik bo'lib, bola haqida duo qilgan bo'lsa, odam o'ldirishdek katta gunoh bo'lsa ham, o'z fazlu karami bilan avf qilishidan umid qilardim, demoqchi bo'lsa kerak.

3-bob ham "Ota-onaga yaxshshik va e'tibor", deb atalib, undagi 5-6-hadislarda aynan 1- 2 hadislardagi mazmun takrorlangan.

5- bob. Ota-onaga muloyim gapirish haqida

8. Taysala ibn Mayyos (r.a.) aytdilar: "Men Najda ibn Omir Xorijiyning ashoblari bilan bo'lib gunohlar qildim. Shularni o'zimcha katta gunoh deb hisoblab, Abdulloh ibn Umar (r.a.)ga borib aytdim. Shunda Abdulloh ibn Umar (r.a.): "Bular katta gunoh emas, katta gunohlar to'qqiztadir, ular: Alloh taologa shirk keltirish, odamni o'ldirish, urush maydonidan qochish, afifa xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo, yetimlar molini yemoq, Alloh taoloning borligini inkor qilish, odamlarni masxara qilish, kamsitish, ota- onani xafa qilib yig'latish - mana shular katta gunohdir", dedilar. Keyin Abdulloh ibn Umar menga qarab: "Ey, Taysala! Sen do'zaxdan qo'rqib jannatga kirishni xohlaysanmi?" - dedilar. Men: "Jannatga kirishni albatta xohlayman", deganimda, u kishi: "Ota-onang tirikmi?" - deb so'radilar. Men: "Otam vafot etgan, ammo onam borlar", dedim. Abdulloh (r.a.): "Katta gunohlardan o'zingni saqlaganingdan keyin onangga qattiq gapirmasang, uning osh-ovqatini berib tursang, albatta jannatga kirasan", dedilar".

Yamomalik Najda ibn Omir (yoki Uvaymir) Abu Hanifa mazhabiga e'tiqod qo'ygan kishi edi. U xavorijlar (ya'ni adashgan oqim) boshlig'i bo'lib, ularning e'tiqodicha, kishilar uchun imom (xalifa yoki amir) bo'lishi shart emas. Odamlarning o'zlari haqni nohaqdan ajrata bilishlari va o'z-o'zlarini, jamiyat yo'nalishini boshqara bilishlari kerak (Muhammad Abu Zuhra, "Al-Mazohib al-Islomiya", 33 bet).

9. Qur'on-i karimdagi Alloh taoloning rahimlilik yuzasidan ota-onangga kamtarlik qanotingni qoqib tur, mazmunidagi so'ziga Hishomning otasi Arat ibn Zubayr (r.a.): "Ota-onang nimani istasa, o'shani ijro qilishdan chekinish qilma", deb tafsir qilgan edilar.

6- bob. Ota-ona haqini ado qilish haqida

10. Abu Hurayra (r.a.) aytdilar: "Rasululloh (s.a.v.): "Bolaning otasi birovning quli bo'lgan bo'lsa, uni xo'jasidan sotib olib ozod qilmaguncha, uning haqini ado qilgan bo'lmaydi", dedilar".

11. Abu Muso Ash'ariy (r.a.)ning o'g'li Abu Burda (r.a.)ning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar (r.a.) bir yamanlik odam o'z onasini opichlab, xonai Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o'qirdi:

Onai zorim uchun bo'ynimni eggan tevaman, Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.

U shuni o'qib turib Abdullohga qaradi-da, "Ey, Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqini ado qila olmadimmi", deb so'radi. "Yo'q, bu xizmatim seni tug'ish vaqtida onangni qiynab tutgan to'lg'oqlarining bittasiga ham barobar emas", dedi. Keyin Abdulloh ibn Umar (r.a.) xonai Ka'bani tavof qildilar va maqomi Ibrohimga borib, ikki rakat namoz o'qib olib, menga qarab: "Ey, Abu Muso Ash'ariyning o'g'li! Mana shu yerda o'qiladigan ikki rak'at namoz o'zidan ilgarigi gunohlarga kafforat bo'ladi", dedilar".

12. Abu Murra aytdilar: "Marvon ibn Hakam Madinadan biror joyga safarga ketganida o'z o'rniga Abu Hurayra (r.a.)ni qoldirib ketardi. Abu Hurayra (r.a.) Zul-Hulayfada turib, o'zlari bir xonada onalari boshqa xonada yashardi. Abu Hurayra (r.a.) qachon o'z xonalaridan tashqariga chiqadigan bo'lsalar, onalarining eshigi oldiga kelib salom berardilar-da: "Meni yoshligimda tarbiyat qilganingiz uchun sizga Alloh taoloning rahmati bo'lsin", der edilar. Onalari ham u kishining salomlariga javob qaytarib: "Katta bo'lganingda menga yaxshilik qilayotganing, roziligimni olayotganing uchun senga ham Alloh taoloning rahmati bo'lsin", — der edilar. Abu Hurayra (r.a.) tashqaridan qaytib kelganlarida ham ona-bola o'rtasida shu muomala takrorlanardi".

Abu Murra - Abu Tolibning qizi Ummu Xonining yoki Aqilning ozod qilgan quli edi .

13. Abdulloh ibn Amr ibn Oss (r.a.) aytdilar: “Bir kishi Rasululloh (s.a.v.) huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay’at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo‘lmay, xafaliqdan yig‘lab qolgan edilar. Shunda Rasululloh (s.a.v.): “Sen hozir ota-onang oldiga bor, hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo‘ldim, deb ularni xursand qil”, - dedilar”.

Abu Murradan rivoyat qilingan 14 hadis 13 hadisshng mazmunan takrori, ammo unda Abu Hurayra (r.a.)ning asl ismi sharifi Muso ibn Ya’qubdan eshitgani bo’yicha Abdulloh ibn Amr ekanigi eslatiladi.

17- bob. Ota-onaning duosi haqida

29. Abu Hurayra aytdilar: “Rasululloh (s.a.v.): »Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi«, deganlar”.

1 Har qanday zulm haqsizlik, deb anglashilgani kabi musulmon tuzumiga qarshi borish ham zulm, deb tushuniladi .

2 Rasululloh (s.a.v.)ning: “Al kazzabu lo ummati”, ya’ni yolg‘onchi mening ummatim emas, degan hadislari mashhurligini muqaddislarning aksariyati rivoyat qiladilar.

II.2. Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish

Muhaddislar imomi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy – islom olamining yirik mutafakkiri, buyuk muhaddis. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Imom al-Buxoriyning ismi – Muhammad, kunyasi – Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-muhaddisiyn, ba’zan amir ul-mo’”miyn fil-hadiys va nasabi – Muhammad ibn Ibrohim ibn al-Mug’iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdur. So’nggi ismi – ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdan ko’rinib turibdiki, Imom al-Buxoriyning asl nasabi ajamliklarga borib taqaladi.

Imom al-Buxoriy otasining ismi Ismoil, kunyasi Abul Hasan bo'lib, davrining etuk muhaddislaridan sanalgan, u Malik ibn Anasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli va oqila ayol edi. Ul zot el orasida Olloh taologa iltijo etib, mudom duo o'qib yuradigan pokiza ayol sifatida tanilganlar (Ibn hajar al-Asqaloniy. Muqaddimat al-fath, 479-bet).

Ma'lumki, imom al-Buxoriy yoshligida ko'zi jarohatlanib, ko'rish qobiliyati susaygan va tabiblar harchand urinmasin uni davolay olmaganlar. Kunlardan bir kuni Al-Buxoriyning onasi tushida Ibrohim alayhissalomni ko'rganda ul zoti sharif bu mushfiqa onaga qarab: "Ey volida, sening behisob duolaring sharofatidan Olloh taolo o'g'lingga mukammal ko'rish qobiliyatini qaytardi",-deya xitob qilganlar. Ona uyqudan uyg'onsa, o'g'li Muhammadning qarog'larida nur jilvalanib turganini ko'rgan (O'sha asar, 478-bet).

Imom al-Buxoriy azal-azaldan ilm-fan va madaniyat borasida dong taratgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Jamiy muhaddislarning imomi, hadis ilmining sultoni (amirul mo'minin fil hadiys), sayyidul fuqaho kabi ulug' rutbalarga muyassar bo'lib, payg'ambar alayhissalomning muborak hadislarini e'zozlab, ularni tarix qatlariga muhrlab ketgan ulug' zot – Imom al-Buxoriy hijriy 194 shavvol oyining o'n uchinchi kunida salotul jum'adan keyin (melodiy 810 yil 21 iyul) dunyoga kelganlar.

Imom al-Buxoriyning otasi u bolaligidayoq vafot etib, bola tarbiyasi onasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshdan islomiy ilmlarni, payg'ambar alayhissalomning muborak hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – al-Dohiliy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o'z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo'lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga o'tlanishi mumkin edi. Imom al-Buxoriy 16 yoshga etguncha o'z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, ulardan saboq olgan. Shundan so'ng islomiy ilmlar markazi, payg'ambar alayhissalomning Vatani,

Qur'oni karim nozil bo'lgan muqaddas diyor, Rasulluloh sahobalarining maskani, islom dinining markazi Hijozi sharifga yo'l olgan. Imom al-Buxoriyning kotibi Ibn Abu Hotam al-Varraqning bu xususda bergan dalolatiga ko'ra ul zot mudom shunday der ekanlar: "Yoshim o'n oltiga chiqqach, Ibn al-Muborak va Vaskiyning kitoblarini yod etib, so'ngra ashoblur-ray kalomlarini bilib olgan edim. Keyin onam va akam bilan birga haj safariga jo'nadim" (Ash-shayx Komil Muhammad Avayda. Al-Imom al-Buxoriy, 7–bet).

825 yili Imom al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkai mukarramaga kelgan, haj ibodatini ado etganidan keyin onasi va akasini Vataniga kuzatgan, o'zi Makada qolgan va bu muqaddas shahar mashoyixlarining ilmiy yig'inlarida qatnasha boshlagan.

Buxoriy 827 yilda, ya'ni 18 yoshida payg'ambar alayhissalomning ravzai muboraklari qo'yilgan muqaddas shahar Madinai munavvaraga etib kelganlar. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn al-Munzir, Mutrif ibn-Abdullah, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo'lib ulardan hadislar bo'yicha ilm olgan. Bu vaqtda Rasullulohning sahobalari, sahobalarining izdoshlari turli mamlakatlarga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini to'plash uchun turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Buxoriyning Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati olti oy davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, u erdagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga qirishadi. Ul zotning bu sa'yu qo'shishlari va bu vaqtda Buxoroda hukmronlik qilgan Holid ibn Ahmad az-Zuhliygacha xush kelmaydi. Shu sababli Imom al-Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykandga, keyin esa Samarqandga keladi. Lekin Imom al-Buxoriy Buxoroda boshlangan fitna Samarqandga ham etib kelgani- dan xabar topib, uning ahli xuddi Poykanddagi kabi ikki guruhga bo'lingani, bir guruh uni qo'llab-quvvatlashini, ikkinchi guruh esa unga muxoliflik kayfiyatida ekanini bilgach: "Oллоhim, dargohing naqadar keng bo'lgani bilan

yorug' dunyo menga torlik qilib qoldi, endi meni o'z rahmatingga qabul et", deb duo qilganlar (Al-Muborakfuriy. Siyrat, 63-64 betlar). Shundan ko'p o'tmay Buxoriy og'ir betob bo'lib qolgan va hijriy 256 yilning Ramazon hayiti (Iyd al-fitr) kechasida (melodiy 870 yil 31 avgust) Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etadi.

Imom Al-Buxoriy merosi. Buxoriy butun faoliyati davomida ilm kishilarini ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlagan. Tijorat qilganda topgan daromadidan oyiga besh yuz dirhamdan faqiru miskinlarga, ilm toliblariga sarflagan. Shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymagan.

Imom al-Buxoriy umr bo'yi hadislarni to'plash va tizimga solish bilan shug'ullangan. Ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato, zaif)ga ajratgan. Bu ishni hadis roviylarining maishiy hayotlari, yashash joylari, tug'ilgan va vafot etgan sanalari, bir-birlari bilan qilgan o'zaro muloqotlarini o'rganish bilan bog'liq holda olib borgan. Buxoriy jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadisni yoddan bilgan. U o'zining noyob qobiliyati, iqtidori, quvvai hofizasining o'ta kuchliligi bilan ilm ahllarini lol qoldirgan. Hadis ilmiga o'ta fidoyilik, aql-zakovatini baxshida etish Buxoriyga shon-sharaf keltirdi, uni islom dunyosining eng buyuk allomalaridan biri sifatida tanitdi.

Imom al-Buxoriy 20 dan ortiq kitob tasnif etgan. Ulardan ayrimlari bizgacha etib kelgan. Uning "Al-Jome' as-Sahih" nomli shoh asari, islom dini allomalarining dalolatiga ko'ra, Qur'oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi. Buxoriyning bu yirik asarida, muallifning o'zi ham, boshqa olimlarning ta'kidlashicha ham, 600 000 hadisdan saralanib, sahihlari tanlab olingan va 16 yil davomida ta'lif etilgan. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Buxoriy yaratgan "Al-Adab al-mufrad"-(“Adab durdonalari”) odob-axloq xususidagi eng sahih hadis- larni o'zida mujassam etgan asari zo'r tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. Bu asarda 1322 hadis va xabar 644 bobda

jamlangan bo'lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha bor chop etilgan. 1990 yilda esa olim Shamsiddin Boboxonov o'g'irgan o'zbekcha tarjimasi nashr etilgan.

Azaldan muhaddislar o'rtasida roviylarni ko'pincha asl ismlari bilan emas, kunyalari bilan atash odat bo'lgan. Bu hol o'z navbatida roviylarni bir-biri bilan almash- tirib yuborilishiga va xatoliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan Imom al-Buxoriyning roviylarning kunyalariga bag'ishlangan "Kitob al-kuna" (Kunyalar haqida kitob) nomli asari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asar Hindistonda 1940 yilda chop etilgan.

Buxoriyning "At-ta'rix al-kabiyr" ("Katta tarix") kitobi esa Turkiyada 9 jildda nashr qilingan. Asar qo'lyoz- masining ba'zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi. Shuningdek, "At-ta'rix as-sag'iy" ("Kichik tarix") ham hadis tarixiga oid qimmatli asar hisob- lanadi. Buxoriy yaratgan "Kitob al-favond" ("Foydali ashyolar haqida kitob"), "Al-Jomi' al-kabiyr" ("Katta to'plam"), "Xalq af'ol al-ibod" ("Alloh bandalari ishlarining tabiati"), "Al-musnad al-kabiyr" ("Katta tayanch"), "Kitob al-xiba" ("Xayr-ehson haqida kitob") va boshqa asarlarining ba'zilar bizgacha etib kelmagan, ba'zilar jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma'lumotlar bor. Uning asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg'ambar (as) sunnatlari bo'yicha asosiy darslik, qo'llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

Istiqlol sharofati bilan Imom al-Buxoriyning o'lmas merosi el-yurt bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori (1997 y. 29 apr.) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. 1998 yil 23 oktyabrda Samarqandda to'y-tantana- lari bo'lib o'tdi. Alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui ochildi.

Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui. Samarqanddagi me'moriy yodgorlik, ziyoratgoh, Imom al-Buxoriy dafn etilgan Chelak tumani Xartang qishlog'i- dagi

qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo'lib kelgan. XVI asrda Imom al-Buxoriy qabri ustiga mo''jazgina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sho'ro tuzumi davridagi dahriylik siyosati tufayli bu maskan qarovsiz ahvolga tushib qolgan. O'zbekiston mustaqillikka erish- ganidan so'ng Imom al-Buxoriy kabi butun umrini imon va e'tiqod, ilm-ma'rifat, diyonat yo'liga baxshida etgan ulug' zotlar xotiralarini e'zozlash, ular nomlari bilan bog'liq joylarni obodonlashtirishga alohida e'tibor berila boshladi. Allomaning 1225 yil- ligini nishonlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Imom al-Buxoriy maqbarasi o'rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi.

Majmua avvalambor ziyoratgoh, muqaddas qadamjo so'ng kundalik, juma, hayit namozlari o'qiladigan joy vazifasini o'taydi. Bu erda hadis ilmini o'rganish va boshqa ma'rifiy ishlarni amalga oshirish ham ko'zlangan. Majmua qoshida kutubxona mavjud bo'lib, unda Qur'oni Karimning noyob qo'lyozmalari, turli nashrlari, Imom al-Buxoriy asarlarining nashrlari va boshqa kitoblar saqlanadi.

Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui hozirda taqvodor insonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan bo'lib, bu maskan ma'naviy sarchashma vazifasini o'tamoqda.

Imom al –Buxoriy xalqaro jamg'armasi. Allomaning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan 1998 yil 4 noyabrda Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi. Jamg'armaning asosiy vazifasi Qur'oni Karim va Buxoriyning “Al-Jomi' as-sahih” tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o'tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. 2000 yildan e'tiboran jamg'arma o'zining “Imom al-Buxoriy saboqlari” ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnalini nashr eta boshladi. Jurnal xalqimizni milliy-ma'naviy merosimizdan bahramand etish, milliy, diniy qadriyatlarning sog'lom idrok etilishiga yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekistonda Buxoriyning xotirasi munosib tarzda abadiylashtirilgan. Toshkent Islom institutiga Imom al-Buxoriy nomi berilgan. Uning hayoti va ijodiga bag'ishlab bir necha tillarda kitob-albom, 2 qismli film (1995), "Hadis ilmining sultoni" 4 qismli kinoqissa (1998) yaratilgan.

Buyuk allomalar Imom al-Buxoriy haqida. Buyuk musulmon allomalarining Al-Buxoriyga bergan yuksak baholari haqida gap ketganda olti ulug' muhaddisdan biri An-Nasmiyning mana bu fikri g'oyat e'tiborga sazovordir: "Hadisga bag'ishlangan mashhur to'plamlarning barchasi ichida Muhammad ibn Ismoilning kitobidan yaxshiroq kitob yo'q". Mashhur alloma Abu Ahmad Muhammad ibn Ahmad ibn Ishoq al-Hokim an-Naysaburiy esa shunday deganlar: "Muhammad ibn Ismoil – olloh uni rahmatiga olsin – al-usul, ya'ni hakamlar usuli haqida faqat hadislardan ta'lif etib, odamlarga uni batafsil bayon qilib bergan. Undan keyin bu borada ijod qilib, faoliyat ko'rsatganlarning barchasi ma'lumotlarni faqat uning shu kitobidan (ko'chirib) olganlar".

Yirik hadisshunos Ahmad ibn Hanbal: "Shu paytgacha Xurosondan Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydek buyuk alloma etishib chiqqan emas",-deb unga yuksak baho bergan.

Movarounnahrning shayxi Abu Ja'far Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Ju'afiy al-Buxoriy (ul zot al-Musnidiy nomi bilan mashhur bo'lganlar) shunday degan: "Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy buyuk olimdir (imomdir). Kimki uni buyuk olim deb bilmasa, gunohkordir".

Movarounnahrning ko'zga ko'ringan muhaddislaridan biri Abu Zakariyo Yah'ya ibn Ja'far ibn A'yon al-Buxoriy al-Poyqandiy: "Agarki o'z umrimdan olib Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning umriga qo'shish imkoni bo'lganda edi, men hech o'ylamasdan shunday qilardim. Zero, men vafot etsam bir kishi vafot etadi, ammo Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy vafot etsa, ilmu irfon barham topadi",-deganlar.

Yirik hadisshunos Abu Muhammad Abdulloh ibn Abdurahmon ibn al-Fazl ibn Bahrom ad-Doramiydan qandaydir bir hadis haqida so'rab: "Bu hadisni Imom al-Buxoriy sahih (ishonchli) deb hisoblagan", deganlarida ul zot: "Muhammad ibn

Ismoil mendan ko'ra ancha ziyarak, olloh bandalari ichida u eng hozirjavobdir. Nimaiki buyurilgan bo'lsa, hammasini Ollohdan idrok qilib qabul qilgan, nimaiki Ollohning kitobida (Qur'onda) va payg'ambar tilida rad qilingan bo'lsa, u ham rad etgan. Agar u Qur'on qiroat qilsa, u tamoman uning qalbini, butun fikri zikri-yu basarini o'ziga rom qilgan. U Ollohning ko'pdan-ko'p misollari xususida teran tafakkur qilgan, haromini haloldan ajratib mulohaza yuritgan",-deb aytganlar.

Biz mustaqillik tufayli o'zligimizni anglanimiz sari Imom al-Buxoriyning muborak siymosini yanada yaqqolroq tasavvur etib, ul zot biz avlodlarga qoldirib ketgan boy xazinani tobora ko'proq qalbimizga jo qilib bormoqdamiz. Biz allomaning bugungi ajdodlari uchun bu buyuk saodatdir. Shu saodat barchamizga bir umr yor bo'lib qolaversin!

“Case study”: Imom Ismoil al-Buxoriy muhaddislar sultoni.

Mavzu: Imom Ismoil al-Buxoriy muhaddislar sultoni

Maqsad: Hadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

“Case study” metodi (keys stadi) muayyan vaziyatlar orqali o'rganish:

– tinglovchilarni o'qituvchi belgilab bergan real vaziyatni tahlil etish va hal qilish takliflarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan metod. Muayyan vaziyatlar (sud-tergov amaliyotidan olingan holat yoxud sun'iy tanlangan reallikka asoslangan bo'ladi) tahlil indi-vidual yoki kichik guruhlarda amalga oshirilishi mumkin.

Tinglovchilarga amaldagi qonunlar va normativ-huquqiy huj-jatlarni, sud-tergov amaliyotidagi holatlarni amaliy qo'llanmalar yordamida taqdim etish maqsadga muvofiq, zero muayyan holatlar o'qitish jarayonining hayotiyligiga, ya'ni amaliyot bilan uzviy bog'liqlikda olib borish imkonini beradi.

Keys tinglovchilarga mavzu doirasida muammoni aniqlashga, uni hal etish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish, hal etish yo'llarini erkin izlash, tahlil qilish va huquqiy baho berish ko'nikma-larini beradi. Keysni tahlil qilish jarayonida tinglovchilar bir-birlari bilan muloqot qilishning kommunikatsion holatlarini shakllantiradi. Keys stadi tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash, tatbiq etishga asoslanadi.

1. Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish:

Birinchi navbatda zarur:

- vaziyatni sinchkovlik bilan o'rganish, guruh va har bir ishtirokchining holati (ahvoli) bilan tanishib chiqishga harakat qilish;
- vaziyatni hal etish jarayonida vaqt omilining ahamiyatini belgilash;
- harakatlarning tartibini yoki yordam ko'rsatish ketma-ketligini aniqlab olish;
- amalga oshirilishi lozim bo'lgan usullarni aniqlab olish;
- aniq vazifani hal etish uchun zarur bo'lgan vositalarni, ularning eng maqbul va minimal miqdorini hamda ular mavjud bo'lmagan holatda qanday harakatlar amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash;
- bir nechta mavjud bo'lgan variantlar ichidan eng maqbulini tanlash va asoslantirish;
- mushkul ahvolga tushib qolgan ishtirokchi sheriklarining yordamisiz bu vaziyatdan qanday va nimalar yordamida chiqib ketishi mumkinligini ko'rib chiqish.

Keysga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur:

1. Keys tuzish maqsadini aniqlash.
2. Maqsadga muvofiq keladigan real vaziyat yoki holatni aynanlashtirish.
3. Keys uchun axborot manbasini topish bo'yicha dastlabki ish-larni amalga oshirish. Axborot izlash tayanch so'zlar orqali Internet tarmoqlarida, bosma nashr kataloglarini, jurnallardagi maqola-larni, gazeta nashrlarini, statistika ma'lumotlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.
4. Turli manbalardan foydalangan holda keys uchun axborot va ma'lumotlar yig'ish.
5. Keysdagi materialni taqdim etishning dastlabki variantini tayyorlash. Bu bosqich o'z ichiga namuna tayyorlash, materialni joylashtirish, prezentatsiya shaklini (video, bosma va h.k.) aniqlashni oladi.
6. Keysni sinovdan o'tkazishdan avval iloji boricha kengroq auditoriya ichida muhokama qilib, kasbdoshlarning ekspert bahosini olish. Bunday baholash

natijasida keysga kerakli o'zgartirish-lar kiritilishi va u yanada yaxshilanishi mumkin.

8. Keysdan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni tayyorlash. Tinglovchilar uchun topshiriq hamda diskussiyani olib borish va keysni prezentatsiya qilish uchun savollarni ishlab chiqish, keysni muhokama qilish vaqtida tinglovchi va o'qituvchining taxminiy harakatlarini bayon qilish.

Real hayotdagi faktlar asosida muammoli vaziyatni tuzish Case-study metodining farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bo'lib hisob-lanadi.

2. Kirish.

Case-study asosidagi o'quv jarayoni samarali bo'lishi uchun ikki jihat muhim hisoblanadi: yaxshi keys va uni o'quv jarayonida qo'l-lashning muayyan metodikasi. Keys nafaqat muayyan hodisalarni ta'riflaydi, balki vaziyatni tushunishga yordam beruvchi yagona axborot kompleksi hisoblanadi. Bundan tashqari, u qo'yilgan muam-moni hal etishga undovchi savollar jamlanmasini o'z ichiga olishi lozim.

Keys quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- tuzishdan ko'zlangan aniq maqsadga muvofiq bo'lishi;
- tegishli murakkablik darajasiga ega bo'lishi;
- fanning bir necha jihatlarini tasvirlashi;
- bugungi kunda dolzarb bo'lishi;
- tipik vaziyatlarni tasvirlashi;
- tahliliy fikr yuritishni rivojlantirishi;
- diskussiyaga undashi;
- bir necha echimlarga ega bo'lishi;
- fanlararo aloqalarga ega bo'lishi.

Ayrim olimlarning fikrilariga ko'ra keyslar ikkiga, ya'ni «o'lik» va «tirik» keyslarga bo'linadi. «O'lik» keyslarga tahlil qilish uchun barcha zarur bo'lgan axborotlarga ega keyslar kiradi. Keysni «tiriltirish» uchun uni tinglovchilarni tahlil qilish uchun qo'shimcha axborotlarni izlashga undaydigan tarzda tuzish kerak. Bu

keysning rivojlanishini va uzoq vaqt davomida dolzarb bo'lib qolishini ta'minlaydi.

Keys bilan ishlashda o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan uchta strategiya mavjud:

- 1) o'qituvchi masalaning uchini qo'shimcha savollar yoki (qo'shimcha) ma'lumot shaklida beradi;
- 2) ayrim sharoitlarda o'qituvchining o'zi javob beradi;
- 3) kimlardir muammo yuzasidan ishlayotganda o'qituvchi hech narsa qilmasligi mumkin (so'zsiz bo'lishi). O'quv vaziyati tahlil qilina-yotganda o'qituvchi «faol» yoki «faol bo'lmagan (passiv)» rolini egal-lashi mumkin. Ayrim paytlarda u muhokamani boshqaradi, ayrim vaqtlarda esa diskussiya bo'yicha xulosa chiqarish bilan chegaralanadi.

3. Asosiy qism.

Seminar mashg'ulotlarda individual, juftlik va guruh tarkibida ish tashkil etiladi, tadqiqot loyihalari, rolly o'yinlar qo'lla-niladi, hujjatlar va turli axborot manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ish elementlaridan foydalaniladi.

O'quv jarayonida keys bilan ishlashning texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) tinglovchilarning keys materiallari bilan yakka tartibda mustaqil ishlashlari (muammoni aniqlashtirish, tayanch muqobil variantlarni shakllantirish, echim yoki tavsiya etiladigan harakatni taklif qilish);
- 2) tayanch muammo va uning echimini topish bo'yicha kichik guruhlarda ishlash;
- 3) umumiy diskussiya jarayonida kichik guruhlar ishi natija-larini prezentatsiya qilish va ekspertizadan o'tkazish (o'quv guruhi doirasida).

4. Xulosa (refleksiya).

Interfaol metodlarni qo'llashda tinglovchi o'zlashtirish jarayonining to'laqonli ishtirochisiga aylanadi, uning tajribasi o'quv bilimining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi tayyor bilimlarni bermaydi, balki tinglovchilarda ularni mustaqil izlashga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulot olib borishning an'anaviy

shakllariga nisbatan interfaol o'qitishda o'qituvchi va tinglovchi-ning o'zaro munosabatlari o'zgaradi: o'qituvchining faolligi tinglovchining faolligiga yon beradi, tinglovchilarning tashabbuskorli-giga sharoit yaratib berish o'qituvchining vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi o'quv axborotini o'zidan o'tkazuvchi o'ziga xos filtr roldan voz kechib, ma'lum bir axborot manbai bilan ishlashda yordamchi vazifasini bajaradi. Interfaol o'qitish hamjihatlik, o'zaro aloqadorlik, bir-birini boyitishni ta'minlaydi. Interfaol metodlar hech qanday tarzda ma'ruza materiallarining o'rnini bos-maydi, biroq uni yaxshiroq o'zlashtirishga ko'maklashadi.

“Case study” uchun tarqatma material

Hadislar Islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keying mo'tabar manba sanaladi. Ularda payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom musulmonlarning moddiy va ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o'zaro ahillik, mehr-oqibat;, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi qilgan nasihatlar va yaxshi fazilatga erishish yo'llari bayon etilgan.

Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?

Imomlar imomi va muhaddislar peshvosi **Abu Abdulloh Ibn Ismoil al-Buxoriy** milodiy hisob bilan 809 yil 13 mayda Buxoroda tavallud topganlar.

Go'dakligidayoq otadan yetim qolib ona qo'lida katta bo'lgan Muhammad 10 yoshlaridanoq arab tili va hadis kitoblarini o'qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishadi.

Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, quwai muhofazalari o'tkir olim edilar. Rivoyat qilishlaricha, qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marta mutolaa qilsalar, hammasi yod qolaverar edi. Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra, yuz ming sahih (ishonarli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan.

Agar Imom Buxoriy yodlagan 300000 hadisni 4 jildlik “al- Jome, as-Sahih” niqdori bilan, ya'ni 7275 ta hadis bilan solishtirsak, 165 jild bo'ladi. Demak, Buxoriy shuncha jildga sig'adigan hadislarni yod bilgan.

Imom Buxoriy bir ming saksonta muhaddisdan hadis eshitgan. Undan to'qson ming kishi ishonchli hadislarni eshitgan. Manbalarga ko'ra, al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadisni to'plagan. Uning 90 ga yaqin ustozlari bo'lgan.

Buni yodda tuting!

Islom dunyosida eng nufuzii manbalar deb sanalgan oltita to'plam (as-sahih as-sita) ni yaratgan muhaddislar bizning vatandoshlarimiz bo'lib, ular Hadis ilmi rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar.

“Al-kutub as-sita” (olti kitob) ni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Buni yodda saqlang!

Hadislarda insonning kamolga etishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks etgan bo'lib, bular mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-onaga va kattalarga, qarindoshlarga g'amho'rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruwat, vatanga muhabbat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, o'zaro do'stlik, tinch-totuvlik va boshqalardan iboratdir.

Eslab qoling!

Hadislarda yetim molini yeish, mol-dunyoga hirs qo'yish, yolg'onchilik, g'iybatchilik, tuhmat, zino, ichkilikbozlik, giyohvandlik, foydasiz gaplarni ko'p gapirmoq gunoh deb ta'kidlanadi.

Hadislar orqali xalqning turmush tarzini yaxshilashga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy ishlarga savob deyiladi. Bular: xarobazorlarni obod etish, ekinzorlarni ko'paytirish, madrasalar va masjidlar qurish, ariq-zovurlar qazib suv chiqarish kabilardir.

Mushohada uchun

“Parvardigori olam buyuk zotlami o'zi aziz etgan joylardagina dunyoga keltiradi. Bunday yurtlar esa yer yuzida sanoqli. Biz cheksiz shukronalik bilan aytamizki, Ona Vatanimiz Ollohning nazariga tushgan ana shunday diyordir” (Islom Karimovning Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqidan).

Quyidagi hadislarni o'rganing va sharhlang:

1. Ey Rasululloh, “Men yaxshilikni kimga qilsain bo’ladi?” Rasululloh: “Uch karra onangga, keyin otangga va yaqin bo’lgan qarindoshlaringga”.

2. Rasulullohdan “Insonlarga berilgan fazilatlaming eng yaxshisi nima?” — deb so’rashdi. Rasululloh: “Insonlarga berilgan fazilatlarining eng yaxshisi yaxshi axloqdir”, dedilar.

3. Rasululloh: “Qiyomat kuni menga eng yaqin bo’luvchilar xalqqa (axloqda) yoqimliroq bo’lganlardir”.

4. “Ogoh bo’linglar! Gunohlarning eng kattasi Olloh Taolaga shirk keltirish, ota-onaga oq bo’lish va yolg’on gapirmoq, tuhmat qilmoqdir”.

5. “Zino, mast qiladigan ichimliklarni ichish va o’g’rilik —o’taketgan qabih ishlar bo’lib, oxiratda ham, bu dunyoning o’zida ham jazosi belgilangandir”.

Hadis (arab. «xabar», «yangilik») – Muhammad (sav) ning aytgan so’zlari, qilgan ishlari, ko’rsatmalari to’g’risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo’ladi: matn va isnod. **Matn** – hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya’ni ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari. **Isnod** (arab. – tirgak, dalil, asos) – har bir hadisning tarkibiy qismi. Isnod aytilgan so’zni aytuvchisiga bog’lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan isnodni bir ma’noda qo’llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo’lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab hadislarni to’plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari Birma-bir ko’rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hasoblanadi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanini ulamolar shu ilmlarni taqqoslash yo’li bilan tekshirgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatlari shartga to’g’ri kelsa, isnod to’g’ri, demak hadis ham to’g’ri deb hisoblangan.

Hadis ikki turga bo’linadi:

1. Hadisi Qudsiy.
2. Hadisi Nabaviy.

Hadisi Qudsiy – ma’nosi olloh taoloniki bo’lib, aytilishi Rusululloh (sav)dan bo’lgan hadislar. Uni Olloh taolo o’z nabiysiga ilhom berish, tushida ko’rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg’ambar (as) esa, buning ma’nosini Olloh nomidan, Olloh taolo aytdi, deb sahobalariga etkazganlar.

Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan esa yana uch qismga bo'linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif.

Qur'oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etiladi. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun Muhammad (sav) o'z hadislarini aytganlar. Bu hadislarini payg'ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Rasululloh (sav) hayotlik chog'larida sahobalarning Qur'oni karimga hadislarini aralashtirib yuborishlaridan qo'rqib, hadislarini yozishdan qaytarar edilar. Rasululloh (sav) vafotlaridan keyin hadislarini naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan Payg'ambarimiz (sav) hadislariga begona so'zlar aralashib qolishidan va hadis naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadis zoe bo'lishidan qo'rqib, uni yozma shaklda to'play boshladilar.

Buni bilib qo'ying!

Islom Karimov: Imom al-Buxoriy hazratlari nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxri-iftixoridir. U1tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir.

Hasadgo'ylar ig'volari ta'siri ostida amir Xolid ibn Ahmad az-Zuhayli va Imom Buxoriy munosabatlari yomonlashadi. Amir Xolid buyuk allomani ona shahri Buxorodan chiqib ketishga farmon beradi.

Imom Buxoriy Samarqand ulomalarining taklifi bilan yo'lga chiqadi. Ammo Samarqandga yetolmay unga yaqin Xartang qishlog'ida yashovchi qarindoshlari G'olib ibn Jibriyl uyida bir necha kun bemor yotgach, milodiy 870-yil 31 avgustda 62 (13 kuni kam) yoshida olamdan o'tadi.

Buni yodda saqlang!

Islom dinining asosiy qonuni (dastur ul-amali) Qur'oni Karimdan keyin uni sharhlovchisi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasulullohning hikmatli gaplari va qilgan ishlari, ya'ni qavllari, fe'llari va taqrirlari ul zotning hadislarini hisoblanadi.

Payg'ambarimiz vafotidan keyin hadislarini yod olgan kishilar tobora kamaya borgani hamda asta-sekin unutilib ketishi rnurnkinligini hisobga olib, xalifalar ishonarli hadislarini to'plashga farmon berdilar.

Hadislarni birinchi marta yozish bilan mashg'ul bo'lgan muhaddislar sifatida Rabez ibn Sabeh, Said bin Abi Aruba, Malik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzo'iy Shoshiy, Sufyon Savriy Kufiy va boshqalar ko'rsatilgan.

Bilib qo'ying!

Insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo'shgan barcha islom ahliga ma'naviy ozuqa baxsh etgan Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko'ra Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Sahih" kitobidan keyin yaratgan "al-Adab al-Mufrad" ("Adab durdonalari") asarida axloqiy qadriyatlarni bayon etadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy ushbu asarida axloq, odob haqida so'z yuritar ekan, odamlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr oqibatli, pok va iymonli bo'lishga dav'at etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanligini ta'kidlaydi.

"Al-Adab al-Mufrad" asarida 1322 ta hadis va xabarlar 644 bobda jam qilingan.

Bilib qo'ying!

Abu Iso Muhammad at-Termiziy 824-yili Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Sherobod tumani) qishlog'ida tug'ilgan.

Imom at-Termiziy Imom al-Buxoriyga shogird bo'lgan. Uning eng katta asari "Sunan" bo'lib, bugungi kunda shoir Mirzo Kenjabek tomonidan "Sunani Termiziy" nomi bilan o'zbek tiliga o'girilgan va nashr qilingan (2- jilddan iborat).

Umrining so'ngi yillarida at-Termiziy ko'zlari ojiz bo'lib qoladi va 892 yili ona shahri Termizda vafot etadi.

Imom at-Termiziyning "Sunan" kitobida keltirilgan hadislarda ta'lim-tarbiya, axloq-odobga oid fikrlar ko'p uchraydi. Chunonchi, u insonda yaxshilik fazilatlarini takomillashtirishni quyidagi hadislarda bayon etadi: "Oллоh nazdida eng yaxshi do'st deb doimo xayrli ishlarni qilib yuruvchi kishilarga aytiladi". "Oллоh nazdida eng yaxshi qo'shni o'z qo'shnilariga yaxshilik qiluvchidir",

"Odamlarga shukur aytmaydigan kishi Oллоhga ham shukur qilmaydi".

Imom at-Termiziy to'plagan hadislar orasida axloq-odobga, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalashga da'vat kuchli: "Chinakam sabr-toqat deb musulmon kishining musibat yuz bergandagi chidamliligiga aytiladi", "Haqiqiy mo'min deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytiladi".

Umuman, Imom at-Termiziyning ma'naviy qadriyatlarga doir merosi, axloq-odob va ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari, dunyoqarashini o'rganishda va ulardan hozirgi ta'lim - tarbiyada foydalanishda u to'plagan hadislar va "Sunan" kitobining ahamiyati g'oyat katta.

Bilib qo'ying!

Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir:

- insofli va adolatli bo'lmoq;
- barchaga salom bermoq;
- kambag'alligida ham sadaqa berib turmoq" (20-bob).

Munofiqlikning belgilari:

- omonatga xiyonat qilgaydir;
- so'zlasa yolg'on so'zlaydir;
- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;
- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qilaydir (25-bob).

II.3. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish

Imom al-Buxoriyning "Al-jomi as-Sahih" asari bo'yicha kitobxonlar konferentsiyasini o'tkazish yo'l-yo'rig'i

Ushbu asar bo'yicha kitobxonlar kechasini o'tkazish katta tayyorgarlik ishlarini talab qiladi. Kitobxonlar kechasini o'tkazish uchun tayyorgarlik ishlari 1-2 oy oldin boshlanadi. Avvalo kecha e'loni yozilib tashkilotlar, jamoa, turli muasasa bo'limlariga e'lon yuboriladi va konferentsiyada ishtirok etuvchi kitobxonlarga taklifnomalar yuboriladi. Mahalliy matbuot, radio va televidenie orqali o'tkaziladigan kecha haqida xabar berish unda ko'pchilikning ishtirok

etishini ta'minlaydi. Kecha uchun auditoriya tanlab bezatiladi. Imom al-Buxoriyning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilinadi. Ko'rgazmadagi adabiyotlar bo'yicha obzor o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kechani kutubxonachi yoki faol kitobxonlardan biri olib borishi mumkin. Kecha davomida kitobxonlardan, ishtirok etuvchilardan mavzu bo'yicha savollar va o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari so'raladi.

Kechani yanada qiziqarli o'tishi uchun uning asarlarini tarjima qilgan tarjimonlarni, tadqiqotchilarni, faylasuflar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, dinshunoslar, Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi vakillarini taklif qilish mumkin.

Imom al –Buxoriyning “Al-jomi’ as-Sahih” asarida ilm-ma’rifatga bag'ishlangan hadislardan namunalar

Hazrat Umar raziyallohu anhu bunday deganlar: “Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing! Rasulluloh salallohu alayhi vassallamning sahobalari yoshlari ulg'ayganda ham ilm o'rganganlar. Rasulluloh salallohu alayhi vassalam: “Ikki narsadan o'zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri – kishiga Alloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni haq yo'lida sarflayotgan bo'lsa, ikkinchisi – kishiga Alloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odam- larga bilganini o'rgatayotgan bo'lsa”, - deganlar”.

Rasulluloh salallohu alayhi vassallam aytganlar: “Ilmga e'tiborsizlik, nodonlik, araqxo'rlik va zinokorlikning ommaviy tus olmog'i qiyomat alomatlaridandir”.

Rasulluloh aytganlar: “Tushimda menga bir idishda sut keltirildi, to'ygunimcha ichdim, hatto tirnoqlarimdan sut chiqqanini ko'rdim”. Sahobalar so'radilar: “Yo rasulluloh, sutni nimaga yo'ydingiz?” “Ilmga”, - dedilar Rasulluloh salallohu alayhi vassallam.

Janob Rasulluloh takalluf qilmay ilmu hikmat bilan hukm qiladigan va boshqalarni ham shunga o'rgatadigan odamni maqtadilar. Xalifalar ilm ahliga maslahat solmoqlari, ulardan bilmaganlarni so'ramoqlari lozim bo'ladi.

Muzohim ibn Zufar deydilar: “Bizga Umar ibn Abdulaziz bunday dedilar: - “Besh xislat mavjudki, qozi ulardan birida xatolikka yo’l qo’ysa, o’ziga gunoh orttir- gay. Bular – fahm-farosatlilik, xushmuomalalik, halol-lik, matonatilik va ilmga chanqoqlikdur”.

Umar ibn Abdulaziz Abu Bakr ibn Hazmga bunday deb yozgan edi: “Rasulluloh salallohu alayhi vassallam aytgan so’zlardan nimaki bo’lsa, hammasini ko’rib chiqib, yozib borg’il, chunki men ulamolarning vafotidan so’ng ilmning yo’q bo’lib ketishidan qo’rqayotirman. Faqat Rasulluloh hadislarini qabul qilinsin. Ulamolar ilm o’rgatishga, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o’rgatsinlar, zero ilm oshkor qilinsa, halokat bo’lmaydi!”

Alloh taolo oyati karimasida: “Alloh taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksal- tirganlarni bu dunyoda yaraqlab, martabasini ulug’ qilg’ay- dur, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir. Alloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardor”, - deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: “Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilg’aysen, deb ayt!” - deyilgan.

Mujohid aytganlar: “Uyalgan kishi ilm ololmaydir. Uyalgan kishi va mutakkabir kishi ilm ololmaydir”. Oysha onamiz aytganlar: “Ayollarning yaxshisi ansoriya ayollar. Dinni teran o’rganmoqlari uchun ularga hayo mone’lik qilmadi”.

Imom al-Buxoriy va uning merosini bilasizmi?

Bilimdonlar bellashuviga savol-javoblar

1. “Sahih” (ta’lif etilgan to’plamlarga faqat to’g’ri, ishonarli hadislarini kiritish) yo’nalishining asoschisi kim?

(“Sahih” yo’nalishining asoschisi islom olamining eng yetuk va mashhur muhaddisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir).

2. Imom al-Buxoriy qachon va qaerda tavallud topgan?

(Imom al-Buxoriy hijriy 194 yilda Buxoro shahrida tavallud topganlar).

3. Buxoriyning ustozlari kim?

(Buxoriy taniqli muhaddislar al-Dohimiy, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy va boshqalardan saboq olgan va ularni ustozlari deb bilgan).

4. Imom al-Buxoriy qancha hadis to'plagan?

(U jami 600 mingga yaqin hadis to'plagan bo'lib, shundan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadisni yoddan bilgan).

5. Allomaning qaysi asari "shoh asar" xisoblanadi?

(Uning "Al-Jomi' as-sahih" nomli asari "shoh asar" deb ataladi va Qur'oni karimdan keyingi asosiy manba hisoblanadi).

6. "Al-Jomi' as-sahih" asarini Buxoriy necha yilda yozgan?

(Buxoriy bu asarini 16 yil davomida yozgan bo'lib, 600 000 ming hadis ichidan sahihlarini saralab olib yozgan).

7. Imom al-Buxoriy necha yoshidan kitob yozishni boshlagan va ular nechta?

(Imom Buxoriy yigirma yoshlaridan kitob yoza boshlaganlar va ularning soni yigirmadan ortiqdir).

8. Allomaning qaysi asarida odob-axloqqa oid hadislar mujassam etilgan?

(Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asari odob-axloq xususidagi eng sahih hadislarini o'zida jamlagan).

9. Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi qachon tashkil etilgan?

(O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'ar- masi 1998 yil 4 noyabrda tuzilgan).

10. Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui qaerda va qachon tashkil etilgan?

(Allomaning 1225 yilligini nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida Imom al-Buxoriy maqbarasi o'rnida (1998 y.), ya'ni alloma abadiy qo'nim topgan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmui barpo etildi).

11. Imom Buxoriyning "Al-Jomi' as-sahih" asari qachon o'zbek tiliga tarjima qilingan?

(Uning "Al-Jomi' as-sahih" deb nomlangan 4 jilddan iborat kitobi Qomuslar Bosh tahririyati tomonidan 1991-1996 yillarda birinchi marta arabchadan o'zbek tiliga tarjima qilingan).

12. Imom al-Buxoriy qachon vafot etgan?

(Alloma hijriy 256 yilning Ramazon hayiti (Iyd al-fitr) kechasida (melodiy 870 yil 31 avgust) Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida vafot etgan).

13. “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon chiqqan?

(Bu sanani nishonlash to'g'risidagi qaror 1997 yil 29 aprelda chiqqan).

14. Imom al-Buxoriy necha yoshida haj safariga borganlar?

(Imom al-Buxoriy 16 yoshdan o'tganda onasi va akasi Ahmad bilan Makkai mukarramaga etib kelganlar va haj ibodatini ado etganlar).

15. “Al-Jomi' as-sahih”ning g'arb tillariga tarjimalarini bilasizmi?

(Ovrupeyaliklardan dastlab Kreyzon degan olim “Al-Jomi' as-sahih”ni ingliz tiliga tarjima qilgan va 1879 yilda Belk degan shaharda o'n jildda nashr etilgan. 1935 yilda olmoniyalik alloma Muhammad Asad (islomni qabul qilgach shu ismni tanlagan) muxtasar izoh va hoshiyalari bilan ikki jildda nashr etgan. Asarni Ahmad Naiym turk tiliga tarjima qilgan. 1903 – 1914 yillarda frantsuz tiliga tarjimasini O.Hadas va V.Mirsius ismli olimlar qilganlar. Mazkur tarjima 1984 yilda Parijda nashr etilgan).

“Imomlar imomi” mavzusida kitob ko'rgazmasi tayyorlashning taxminiy rejasi

Ko'rgazma 3 yoki 4 bo'limdan iborat bo'lishi mumkin

1. “Imom al-Buxoriy va ma'naviy tarbiya”

Amal qilishi yoki qilmasligidan qat'i nazar, ilmdan bir bob o'rgangan kimsaning amali ming rakaat nafl namozini o'qigandan afzalroqdir.

Hadis.

Bu bo'limga Imom al-Buxoriyning iymon-e'tiqod, halollik, rostgo'ylik, poklik mavzulariga bag'ishlangan hadislar haqidagi adabiyotlar qo'yilishi mumkin.

2. “Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni”

*Ilm o'rganish niyatida yo'lga chiqqan kimsaning qadamini
Alloh taolo engil qiladi.*

Hadis

Bu bo'limga imom al-Buxoriy hayoti va u kishining qalamiga mansub asarlar haqidagi adabiyotlar qo'yilishi mumkin.

3. “Moziydan taralgan ziyo”

“Uyalgan kishi ilm ololmaydir. Uyalgan kishi va mutakkabir kishi ilm ololmaydir”.

Al-Jomi' as-sahih

Bu bo'limga allomaning “Al-Jomi' as-sahih” asari va unga kirgan hadislar, asarning arabcha sharhlari, bu asarga bag'ishlangan boshqa asarlar va tarjimalar, asarning g'arb tillariga tarjimalari haqidagi adabiyotlarni qo'yish mumkin.

Tadbirlar turkumi

Mavzular taxminiy bo'lib, viloyat kutubxonasidan qishloq kutubxonasigacha har bir kutubxona tadbirlarning o'zi uchun ma'qul shaklini tanlab olishi, ularni mahalliy materiallar bilan to'ldirishi mumkin.

Mavzuli kecha

1. “Imom al-Buxoriy nomi bilan...”
2. “Imom al-Buxoriy – buyuk alloma”.

“E'tiqod ziyosi” mavzusida kitob ko'rgazmasi va ko'rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Davra suhbat

1. “Al-Jomi as-sahih” – Imom al-Buxoriyning shoh asari.
2. “Al-Adab al-mufrad” (Adab durdonalari) odob-axloq hususidagi eng sahih hadislar to'plami.

“Hadis ilmining bilimdoni” mavzusida kitob ko'rgazmasi va ko'rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Munozara kechasi

1. “Ikki dunyo saodati: Imom Buxoriy to'plagan ayrim hadislarining nazariy talqini xususida”.

2. “Moziydan taralgan ziyo: Imom al-Buxoriy va ma’naviy tarbiya xususida”.

“Ta’lim-tarbiya va ajdodlarimiz merosi” mavzusida kitob ko’rgazmasi va ko’rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Uchrashuv kechasi

Hadisshunos va tasavvuf ilmining olimlari bilan.

1. Juzjoniy Abdulhakim
2. Shayx Abdulaziz Mansur.
3. Mahmud Jo’shon.

Konferentsiya

1. Imom al-Buxoriy hadislarining tarbiyaviy ahamiyati.
2. Imom va ulamolarning fazilati haqidagi hadislar.
3. “Al-Jomi’ as-sahih” asarining ahamiyati.
4. Imom al-Buxoriy hadislar hayotga.
5. Hadislar yovuzlikka qarshi.

II bob bo’yicha xulosa

Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida tarbiya, axloq-odob, o’zaro do’stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqni targ’ib qilish bilan bir qatorda razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg’onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nisbatan nafrat tuyg’ulari ham o’z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur hadislar jamiyatimiz kishilarini, xususan yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek masuliyatli ishga o’z hissasini qo’shadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish uchun quyidagi yo’nalishlarda manbalardan unumli foydalanish mumkin. Jumladan, “Muhaddislar imomi”, “Imom Al-Buxoriy merosi”, “Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui”, “Imom al-Buxoriy xalqaro jamg’armasi”, “Buyuk allomalar Imom al-Buxoriy haqida”, “CASE STUDY: “Imom Ismoil al-Buxoriy muhaddislar sultoni””.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish bo'yicha quyidagilarni tashkil qilish mumkin. Imom al-Buxoriyning "Al-jomi as-Sahih" asari bo'yicha kitobxonlar kechasi, ilm-ma'rifatga bag'ishlangan hadislardan namunalar, Imom al-Buxoriy va uning merosini bilasizmi? nomli viktorina. "Imomlar imomi" mavzusida kitob ko'rgazmasi tayyorlashning taxminiy rejasi: "Imom al-Buxoriy va ma'naviy tarbiya", "Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni", "Moziydan taralgan ziyo". Tadbirlar turkumiga quyidagi tadbirlarni o'tkazish mumkin: mavzuli kecha, davra suhbat, munozara kechasi, uchrashuv kechasi, konferentsiya va boshqalar.

XULOSA

Hadis - islom dini talimoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad(s.a.v.) payg'abarning hayoti va foliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad(s.a.v.) payg'ambar biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlaricha qilayotgan biron ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomlari yani, farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabilardan tashqari, axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. Ularda ibodatning tartib-qoidalari va ularni mukammal bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil sifatlar qoralanadi.

Imom Buxoriy nomi butun islom olamida izzat-ehtirom bilan tilga olinadi. 1974 yili Samarqandda Imom Buxoriy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan jahon anjumani o'tkazilganligi, shoh asarlari sanalmish "al-Jome as-Sahih" va "al-Aab al-mufrad" kitoblarining mamlakatimizda qaytadan nashr qilinishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, muhofazalari o'tkir olim. Qaysi bir kitobini qo'lga olib, bir marotaba mutolaa qilsalar, hammasi yod qolaverardi. Ul zot butun faoliyati davomida ham ilmiy, imkoni bo'lsa moddiy jihatdan, odamlarga biror naf etkazishni asosiy maqsad deb bilgan.

"Al-Jomi as-Sahih"da insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo'lib, ushbu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehr-oqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug'lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intilishi kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur'oni

Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilgan va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislarida tarbiya, axloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqni targ'ib qilish bilan bir qatorda razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nisbatan nafrat tuyg'ulari ham o'z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur hadislar jamiyatimiz kishilarini, xususan yosh avlodni ma'naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek masuliyatli ishga o'z hissasini qo'shadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy ilmiy merosidan foydalanish uchun quyidagi yo'nalishlarda manbalardan unumli foydalanish mumkin. Jumladan, "Muhaddislar imomi", "Imom Al-Buxoriy merosi", "Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui", "Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi", "Buyuk allomalar Imom al-Buxoriy haqida", "CASE STUDY: "Imom Ismoil al-Buxoriy muhaddislar sultoni"".

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda Imom Ismoil al-Buxoriyning hadislaridan unumli foydalanish bo'yicha quyidagilarni tashkil qilish mumkin. Imom al-Buxoriyning "Al-jomi as-Sahih" asari bo'yicha kitobxonlar kechasi, ilm-ma'rifatga bag'ishlangan hadislardan namunalar, Imom al-Buxoriy va uning merosini bilasizmi? nomli viktorina. "Imomlar imomi" mavzusida kitob ko'rgazmasi tayyorlashning taxminiy rejasi: "Imom al-Buxoriy va ma'naviy tarbiya", "Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni", "Moziydan taralgan ziyo". Tadbirlar turkumiga quyidagi tadbirlarni o'tkazish mumkin: mavzuli kecha, davra suhbat, munozara kechasi, uchrashuv kechasi, konferentsiya va boshqalar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси («Халқ сўзи» газетаси, 1992 йил 15 декабрь, 243 (494)-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 1-сон, 5-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003 й., 3-4-сон, 27-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 й., 12/1-сон, 343-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 152-модда; 2008 й., 52-сон, 510-модда; 2011 й., 16-сон, 159-модда; 2014 й., 16-сон, 176-модда)
2. Ўзбекистон Республикасининг қонуни Таълим тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9 - сон, 225-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда)
3. Ўзбекистон Республикасининг қонуни Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда)
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2011. – 176 б.
5. Каримов И.А. Юксак малакали ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шарти. – Халқ сўзи – 2012. – 18 февраль.
6. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир – Т.: “O‘zbekiston” НМИУ, 2015. – 304 б.
7. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul

qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – O'zbekiston ovozi. – 2016. – 8 dekabr.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

9. Ўзбекистон Республикасининг қонуни «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда)

10. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий Ал-Жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). 4 жилдли. –Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1995-1999. - 390 б.

11. Азим Суюн. Ўтиқод зиёси //Ўзбекистон адабиёти ва санъати.- 1990. - 30 март.

12. Ал-Бухорий Имом. Илму маърифат нури: Сайланма ҳадислар: Илм. Ватан. Инсон. Маърифат. Матонат. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. - 300 б.

13. Ал-Бухорий Имом. Солиҳ амаллар: сайланма ҳадислар: Ахлоқ. Одоб. Иймон. Ўтиқод.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 270 б.

14. Ал-Бухорий Имом. Эр ва аёл бурчи: сайланма ҳадислар: Оила. Никоҳ. Аёл. Фарзанд. Мерос.–Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. – 420 б.

15. Ал-Бухорий ҳақида замондошларининг хотиралари. Шамсиддин Бобоҳоновнинг Имом Исмоил ал-Аҳурийнинг “Ал-адаб ал-муфрад” (адаб дурдоналари) китоби таржимасидан олинди. – Тошкент, Ўзбекистон, 1990. 608 б.

16. Ал-Бухорий, Абу Абдуллох Мухаммад ибн Исмоил. Хадис. 4 жилдли китоб. 1-китоб. Ал-жомеъ ас-сахих (Ишонарли тўплам). Арабчадан 3. Исмоил таржимаси. – Тошкент, Қомуслар бош тахририяти, 1991. – 320 б.
17. Ал-Шайх Абдуссалом ал-Муборакфурурий. Сийрат ал-Имом ал-Бухорий //Имом ал-Бухорий сабоқлари.-2004.-№3.-Б.167-171.
18. Асрор Самад. Пайғамбар, дин ва диндорлик. Имом Исмоил ал-Бухорийнинг «Ал-адаб ал-муфрад» («Адаб дурдоналари») китобига сўнгги сўз. – Тошкент, Ўзбекистон, 1990, 183-184-бетлар.
19. Ахмадхон Доктор “Асоми шуйух ал-Бухорий” //Имом ал-Бухорий сабоқлари.-2005.-№2-3.-Б.89-92.
20. Бабаханов Ш. 3., Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами. Т., 1998. – 250 с.
21. Бухорий //Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2-жилд. Бешик-Гидрофизика. Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев ва бошқ.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2001.-Б.278-281.
22. Душан Файзий Зарафшоний, Имом ал-Бухорий, Т., 1998. - 170 б.
23. Жабборов Н. Имом ал-Бухорий ва Хожа Аҳрор Валий //Имом ал-Бухорий сабоқлари.-2004.-№3.-Б.183-185.
24. Ибрагимов Х.И., Абдуллайева Ш.А. Педагогика назарияси (Дарслик). - Т.: “Фн ва технологиялар” нашриёти, 2008. - 430 б.
25. Икки дунё саодати: (Имом Бухорий тўплаган айрим ҳадисларнинг назарий талқини /Талқин ва изоҳлар муаллифи А.Ўктамов.- Т.: Чўлпон, 1998.-55 б.
26. Имом ал-Бухорий – мухаддислар султони /Нашрга тайёрловчилар: Усмонхон ҳожи Темурхон ўғли ва Бахтиёр Набихон ўғли [Таҳрир ҳайъати: А.Мансуров, Н.Иброҳимов, Н.Тўхлиев, А.Ҳасанов] .-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998.-111 б.
27. Имом ал-Бухорий – мухаддислар султони [нашрга тайёрловчилар Усмонҳожи Темурхон ўғли, Бахтиёр Набихон ўғли], Т., 1998 – 120 б.

28. Ислом. Энциклопедия: А-Х / З.Хусниддинов таҳрири остида.- Т.:Ўзбек миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2003.-313 б.
29. Мадаминов С, Имом Бухорий таърифи, Т., 1996. – 100 б
30. Маънавият юлдузлари [2нашри], Т., 2001. – 150 б.
31. Мозийдан таралган зиё. Имом ал-Бухорий /Масъул муҳаррир А.Азизхўжаев; Муаллифлар жамоаси: А.Ҳакимов, Б.Аҳмедов, Э.Ртвеладзе ва бошқ.-Т.: Шарқ, 1998.-181 б.
32. Мусаева Н.М. Инсоннинг маънавий-ахлоқий ғазилатларини шакллан-тиришда ҳадисларнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): дис. ... фалсафа фанлари номзоди. , 2001. – 182 б.
33. Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. – Тошкент, Камалак, 1991, 60 бет.
34. Муҳитдинова Д. Имом Бухорий мероси Ғарб олимлари нигоҳида //Имом ал-Бухорий сабоқлари.-2005.-№1.-Б.10-11.
35. Носиров К. Таълим-тарбия ва аждодларимиз мероси: [Ал-Хоразмий, ал-Бухорий, ал-Фарғоний, ат-Термизий, Фаробий, Беруний, Бобур кабилар меросидан] //Бошланғич таълим.-1999.-№1.-Б.20-21.
36. Отамуродова Р. Имом ал-Бухорий ва маънавий тарбия //Халқ таълими.-2002.-№1.-Б.38-40.
37. Пазилова М.Е. Ўқувчи маънавиятини ҳадислар воситасида шакллан-тиришнинг педагогик асослари ("Миллий истиқлол ғояси ва маънавият асослари" ва "Дунё динлари тарихи" ўқув фанлари мисолида: дис. ... пед. фан. номзоди : 13.00.01., 2004. – 162 б.
38. Педагогика. М.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида (Дарслик). – Т., 2010. – 340 б.
39. Уватов.У. Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларининг ҳадис илми ривожига тутган ўрни (ал-Бухорий, Муслим, ат-Термизий): дис. ... тарих фан. д-ри : - Ташкент , 2001. - 314 б.
40. Уватов У. Буюк муҳаддислар. Имом ал-Бухорий, Имом Муслим, Имом ат-Термизий /Масъул муҳаррир М.Хайруллаев.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998. - 63 б.

41. Уватов У. Муҳаддислар имоми /Масъул муҳаррир А.Мансуров.- Т.: Маънавият, 1998. - 88 б.
42. Уватов У. Ҳадис илмининг султони. Ўзбекистон адабиёти ва санъати.1993.29 октябр. №43-44
43. Уватов У., Имом ал-Бухорий, Т., 1998. – 70 б.
44. Эшонжонов Б. И. IX аср Мовароуннаҳр маданий ҳаётида Имом ал- Бухорийнинг мавқеи ва унинг " ал-Жоми' ас-саҳиҳ" асаридаги фиккий масалалар: дис. ... тарих фанлари номзоди, 2000. – 175 б.
45. Қодирова М. Бухорий номи билан //Тафаккур.-2000.-№4.-Б.93.
46. Ҳошимов К., Нишонова С. Педагогика тарихи (Дарслик). – Т.: “А.Навоий нимидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”, 2001. – 470 б.
47. Ҳошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлланма; 1-жилд, – Т.: Ўқитувчи, 2010. 480-б.
48. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
49. <http://n.ziyouz.com/books/islomiy/boshqa/Axloq-odob.namunalari.pdf>
50. <http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=177.0>
51. <http://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/muhaddislar-sultoni.html>
52. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/buxoriy-uz/>
53. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/Search/>

ILOVALAR

Hadislar

1. Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bat bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir.
2. Qizlarni turmushga chiqarish to'g'risida onalari bilan maslahatlashinglar.
3. Munofiqlik belgisi uchta: yolg'on so'zlash, va'dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.
4. Chaqirilgan joygagina boring.
5. Taomni sovitibroq iste'mol qilinglar, issiq-qaynoq taomda baraka bo'lmaydi.
6. Qalbing muloyim, hojating ravo bo'lishini xohlaysanmi? Xohlasang yetimlarga mehribon bo'l, ularning boshini sila, o'z taomingdan ularga yedir. Shunda diling yumshab, hojating ravo bo'lur.
7. Chaqimchilik nima, bilasizlarmi? U - odamlarning gaplarini (ularning o'zaro munosabatlarini buzish niyatida) bir-birlariga tashimoqlikdir.
8. Ikki kishiga Tangri qiyomat kuni rahmat nazari bilan boqmaydi: 1. Qarindosh uryg'idan uzilib ketgan kishiga. 2. Yomon qo'shniga.
9. Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to'rt kishi uch kishidan yaxshi, ko'pchilik bilan birga bo'linglar. Tangri ummatlarimni faqat to'g'ri yo'lda borishlikka birlashtiradi.
10. Odamlarni yuziga urishdan saqlaninglar.
11. O'zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko'r!
12. Do'stingni yengilroq sevginki, kuni kelib dushman bo'lib qolishi ham mumkin. Dushmaningga ham yengilroq adovat qilginki, kuni kelib do'st bo'lib qolishi ham mumkin.
13. Liboslaringizni chiroyli qilinglar, ot-ulovlaringizni yaroqli tutinglar! Yuzdagi xoldek odamlarga namuna bo'linglar!
14. Otangiz vafotidan keyin uning do'stlari bilan aloqani davom ettiring.

Ular bilan aloqani uzsangiz, Tangri sizning nuringizni o'chiradi⁶.

15. Ziyoratingizga kelgan odam hurmatini joyiga qo'yinglar.
16. Kim-kimni do'st tutsa, shu sevgisini bildirib qo'ysin.
17. Uyqudan uyg'ongan odam qo'lini to uch marta yuvmaguncha idishga tiqmasin, chunki u qo'li qayerlarda tunaganini bilmaydi.
18. Qachonki xayolingizdan biror shubhali fikr o'tsa, uni tark eting!
19. Biror kishi gapirgan paytida u yoq-bu yoqqa qarab qo'ysa, demak bu gap omonatdir⁷.
20. Savobli ish qilganingizda xursand bo'lsangiz, gunoh ish qilganingizda esa xafa bo'lsangiz, demak, siz haqiqiy mo'mindirsiz.
21. Biror kishidan "Odamlar buzilib ketdi", degan gapni eshitsangiz, bilingki, o'sha odamning o'zi buzilgandir.
22. Qo'shnilaringiz sizni yaxshi odam deyishayotgan bo'lsa, demak, siz yaxshisiz. Agar ular sizni yomon odam deyishayotgan bo'lsa, demak, siz yomon odamdirsiz.
23. Bir joyda vabo kasali bor deb eshitsalaring, o'sha joyga kirmanglar. Agar sizlar yashayotgan joyga vabo kelsa, o'sha yerdan qochib chiqib ketmanglar.
24. Podshohlaringiz yaxshi, boylaringiz saxiy va ishlaringiz bamaslahat bo'lsa, sizlar uchun yerning ostidan ko'ra usti afzaldir. Aks holda yerning ustidan osti afzaldir.
25. Agar uch kishi bo'lsangizlar, ikkitalaringiz alohida uchinchi shaxsga eshittirmay pichirlab gaplashmanglar, chunki bu uni ranjitadi.
26. Qaysi birlaringiz o'zingizdan boyroq yoki axloqliroq odamni ko'rib qolsangiz, darhol o'zingizdan kambag'alroq va axloqsizroq odamlar ham borligini eslang.
27. Dunyodan o'tib ketganlarning faqat yaxshi sifatlarini yod etinglar. Yomon sifatlaridan tilingizni tiyinglar.
28. takabbur kambag'alni, zinokor keksani va zolim podshohni.

⁶ Obro'-e'tiboringizni pasaytiradi, ma'nosida

⁷ Omonat – bu yerda maxfiy, faqat o'ziga aytilayotgan ma'nosida.

29. Tishlaringizni misvok⁸ bilan tozalab yuringlar va tozalikka odat qilinglar. Takror-takror qilinadigan maxsus ishlarni toq bajaringlar, zero Tangrining o'zi toq, toq ishlarni yaxshi ko'radi.

30. Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin!

31. Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.

32. Odamlarga shukur qiliuvchilar Tangriga ham shukur qiluvchilardir.

33. Ahmoqdan uzoqlashing.

79. Odamlarga taom yediringlar va shirin so'z bo'linglar.

80. Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandning hojatini chiqaring.

81. Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir.

82. Kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir.

83. Yaxshilikni chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar.

84. Yerni turli nomlariga qarab tanib olish mumkin bo'lganidek, do'stni ham do'stiga qarab bilib olsa bo'ladi.

85. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda ortalaringda mehru muhabbat uyg'onur.

86. Imonning afzali – sabr va keng qalbli bo'lishdir.

87. Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir.

88. Kimgaki aqlu idrok nasib etilgan bo'lsa, demak, u omadlidir.

89. UZR so'rashlikni⁹ kamroq qiling.

90. Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.

91. Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar.

⁸ Tish tozalagich

⁹ UZR so'raladigan ishni.

92. Nonni e'zozlanglar.
93. Imon jihatdan mo'minlarning komilrog'i – xulqi yaxshi bo'lgani va xotinlarga yaxshi muomala qiladiganidir.
94. Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so'ng otangga yaxshilik qil.
95. Tangri go'zaldir, go'zallikni yaxshi ko'radi.
96. Imonli odam va'daga vafodor bo'ladi.
97. So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat.
98. Odamlar orasida chaqimchilik va bo'hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.
99. Qaysi bir odam halol kasb bilan molu dunyo topib, undan o'zining va Tangrining boshqa bandalarining oziq-ovqati va kiyim-kechagi uchun sarf qilsa, shularning hammasi unga sadaqa hukmida yoziladi.
100. Oila nafaqasidagi tejamkorlik tirikchilikning yarmiga teng. Odamlar bilan do'stlashish aqlning yarmiga teng. Savol so'rash odoblarini bilish ilmning yarmiga barobar.